**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Z.M.YAKUBOV**

# CHOLG`U IJROCHILIGI

(g`ijjak cholg`usi )

***(5111100-musiqa ta'limi mutaxassisligi, Oliy o`quv yurtlari musiqa yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma)***

Samarqand-2021

**UO`K 785(789)**
**KBK 85.315.3**
**Ya 49**

**Yakubov Z.M. "Cholg`u ijrochiligi, g`ijjak cholg`usi". fani bo`yicha o`quv qo`llanma.**-Samarqand: SamDU nashri, 2021y. 174 bet

*Mazkur o'quv qo'llanmada "Cholg'u ijrochiligi" fani bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'1gan nazariy va amaliy ma'lumot1ar o'rin olgan. Shuningdek, ansambl ijrochiligida foydlanish uchun xalq kuylari, bastakorlar asarlari hamda mumtoz va maqom kuylaridan namunalar berilgan.*

*O'quv qo'11anma oliy o`quv yurtlarning 5111100-musiqa ta'limi yo'na1ishi o'qituvchilari va talabalariga mo'1jallangan.*

**Mas'ul muharir:**
O`zbekiston Respublikasi Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, musiqashunos **M. Toshpulatov**

**Taqrizchilar:**

Samarqand davlat unversiteti musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi. **R. Hamroqulov**

Samarqand ixtisoslashtirilgan san'at maktabi, xalq cholg`ulari kafedrasi, oliy toifali o`qituvchisi. **A. Aliqulov**

***SamDU kengashining 2021-yil 31 martda bo'lib o'tgan yig'ilishi qarori bilan (9-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan***

ISBN 978-9943-6672-4-2

*© Samarqand davlat universiteti, 2021*
*© Yakubov Z.M. 2021*

## MUNDARIJA

**Kirish…………………………………………………………….**5
**1.1.** Fanning maqsadi va vazifalari……………………………………5
**1.2.** Fanni o`zlashtirishga qo`yiladigan talablar………………………6
**1.3.** Fanning boshqa fanlar bilan bog`liqligi…………………………..7
**1.4.** Fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar…………………………………………………………7

**I BOB. NAZARIY MASHG`ULOTLAR**
**2.1.** Cholg`u ijrochiligining rivojlanish davrlari..........................10
**2.2.** Milliy cho1g`u turlari…………………………………………..17
**2.3.** Uslubiy ko`rsatmalar……………………………………………36
**2.4.** G`ijjak cholg`u ijrochilik texnikasiga oid masalalar…………….40

**II BOB. CHOLG`U IJROCHILIGI UCHUN XALQ KUYLARIDAN NAMUNALAR**
**3.1.** "Olmani otdim" O`zbek xalq kuyi………………………………59
**3.2.** "Bilakuzuk" O`zbek xalq kuyi……………………….............61
**3.3.** "Gulyoraxon" O`zbek xalq kuyi………………………………..62
**3.4.** **"**Farg`onacha" O`zbek xalq kuyi……………………………..63
**3.5.** "Mirzadavlat" O`zbek xalq kuyi………………………………...65
**3.6.** "Qoradali" O`zbek xalq kuyi S. Hayitboyev qayta ishlagan……67
**3.7.** "Rajabiy" O`zbek xalq kuyi……………………………………..69

**III BOB. ANSAMBL IJROCHILIGI UCHUN MAQOM KUYLARIDAN NAMUNALAR**
**4.1.** "Nasri segoh" O`zbek xalq kuyi………………...…………71
**4.2.** "Ufori Nasri segoh" O`zbek xalq kuyi……………..……..73
**4.3.** "Aliqambar" O`zbek xalq kuyi……………………...............75
**4.4.** "Rohat" O`zbek xalq kuyi………………………………………77
**4.5.** "Abdurahmonbegi" O`zbek xalq kuyi…………………………79

**4.6.** “Munojot” O`zbek xalq kuyi……………………………………81
**4.7.** “Munojot ufori” O`zbek xalq kuyi……………………………84
**4.8.** “Munojot mo`g`ulchasi” O`zbek xalq kuyi ……………………85
**4.9.** “Munojot qashqarchasi” O`zbek xalq kuyi……………………...86
**4.10.** “Yovvoyi chorgoh” O`zbek xalq kuyi……………......................87

## IV BOB. MDH VA CHET EL BASTAKORLARINING ASARLARI

**5.1.** “Elegiya” F.Aminov g`ijjak matni Q. Nazarov tahriri ost…...92
**5.2.** “Ballada” F.Aminov g`ijjak matni Q. Nazarov tah ost...........94
**5.3.** “Sevgi raqsi” F. Aminov g`ijjak matni Q. Nazarov tah ost….99
**5.4.** “Konsert” II Oskar Reding……………………………..........105
**5.5.** “Konsert” III Oskar Reding…………..................................109
**5.6.** “Andante” Yozef Gaydn……………………......................117
**5.7.** “Burre i menuet” Adolf Xasse…………………………...120
**5.8.** “Menueta” Lui Marshan…………………….........................122
**5.9.** “Perepyolochka” A.Kamarovska qayta ishlagan…………...123
**5.10.** “Polka” M.Glenka…………………………………………...125
**5.11.** “Polonez” Mixail Kleofas Oginsky……………................127
**5.12.**” P’yesa” Bela Bartok………………………………………...133
**5.13.** “Starinnaya fransuzkaya pesenka” J.B.Bekeerle qayta ish..135
**5.14.** “Surok” Lyudvik Van Betxoven……………………..........138
**5.15.** “Sonatina” L.Betxoven………………………………………139
**5.16.** “Ekosez” Frans Shubert…………………………..................142
**5.17.** “Vals” Frans Shubert…………………………………………...143
**5.18.** “Xor Oxotnikov” K.M.Veeber………………………………145
**5.19.** “Pesnya pastushka” V.Motsart……………………………147
**5.20.** “Romans” N.Baklanova…………………………..............149
**Cholg`u ijrochiligi va ansambli fanidan test savollari..........150**
**Xulosa……………………………………………………………...161**
**Glossari……………………………………………………………163**
**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati…………………………..174**

# KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, an'analarning tiklanishi musiqa san'atida ham o`z ifodasini topmoqda. Ajdodlarimizdan meros bo`lib kelayotgan va hozirda yaratilayotgan mazmunan boy asarlarni keng targ`ib qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. O`zbekistonda jamiyat musiqiy madaniyatini rivojlantirib borish respublikamizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha 2017-2021-yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasining negizlaridan birini tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg`or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda musiqa san'ati insonlarga va ayniqsa, yoshlarga ko`tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo`naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

«Cholg`u ijrochiligi » sinfida milliy musiqiy qadriyatlarimizni chuqur o`rganish, milliy xalq kuylarini alohida yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Darslar jarayonida ta'limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida, talabalar yuksak axloqiylik, milliy ong, milliy tuyg`u, milliy iftixor, Vatanni sevish va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi.

## 1.1.Fanning maqsadi va vazifalari.

**Fanning maqsadi:** Maqsad – talabalarning o`quv jarayonida olgan bilimlarini mutaxassis sifatida mujassamlashtirish, keyingi o`qituvchilik faoliyatida cholg`u asboblarida ijro etishni tashkil qilish yo`llarini, talaba va o`quvchilarning o`qishdan bo`sh vaqtlarini to`g`ri

tashkil qilish, madaniy merosga to`g`ri yondoshishga, ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g`oyaviy – badiiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko`rsatish.

«Madaniyat va san’at o’quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to`g`risida» dasturidagi nazariy va amaliy mashg`ulotlarni texnik vositalardan foydalanib, o`tkazish ta’lim samaradorligini oshiradi. O`qish jarayonida kafedralarda tashkil etilgan fonetekadan foydalaniladi.

**Fanining vazifalari** – «Musiqiy ta’lim mutaxassisligi» bo`yicha talabalarni cholg`u ijrochiligi tarixi, shakllantirilishi haqida ma’lumotga ega bo`lishi, ansambllarni tashkil qilish haqidagi nazariy va amaliy bilimga ega bo`lish, ijrodagi usullar (cholg`u zarblari, shtrixlari). Doira usullari, bezaklardan unumli foydadana olish, cholg`ular ijrosida unison va ko`p ovozli musiqiy asarlarni o`rganish, tahlil qila olish, cholg`ular haqida qiziqarli so`hbatlar o`tkaza olish, umum ta’lim maktablarida turli xil ansambllarni tashkil eta olish, repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallashdan iborat. musiqiy-estetik va musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish; musiqiy-estetik qarashlar, did va talablarni shakllantirish.

## 1.2. Fanni o`zlashtirishga qo`yiladigan talablar.

«Cholg`u ijrochiligi» fanini o`zlashtirsh natijasida talabalar quyidagi bilim, ko`nikma va tasavvurlarga ega bo'lishi lozim:

- Cholg`u ijrochiligi san’atining yaratilish tarixi, cholg`ushunoslikning nazariy va amaliy tamoyillari, ijro diapozoni, ularning xususiyatlarini bilishi kerak;
- Cholg`u ijrochiligida ijro etish jarayoni, repertuarlarini optimal tanlash, ijro texnikasi va ijro xususiyatlariga ko`ra asarlarni tanlab ajratib olish ko`nikmalariga ega bo`lish kerak;
- Cholg`u ijrochiligi va mutaxassisligi fani talabalar tanlagan asarlarni qoidalar asosida ijro etish xususiyatiga ko`ra, falsh ijrosiga yo`l qo`yilmasdan, alohida ishlash va cholg`u ijrochiligiga rahbarlik qilib, boshqara olish malakalariga ega bo`lishi kerak.

## 1.3. Fanning boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

Cholg`u ijrochiligi – fani «Cholg`ushunoslik», «Musiqa nazariyasi», «Solfedjio», va «Nazariy musiqashunoslik» o'quv fanlari bilan uzviy bog'liq. Shuningdek: Pedagogika, psixologiya, musiqiy mahorat asoslari fanlari bilan bevosita bog`liq.

## 1.4. Fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar.

«Cholg`u ijrochiligi» fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, hamda o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, tarqatiluvchi material, elektron o'quv materiallari. audio yozuvlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarning ushbu fanni o`zlashtirishlari uchun ular turli texnik obyektlar hisoblarini ilg`or va zamonaviy hisob usullarida bajara olishlari, ijro etish ishlarini shaxsiy kompyuterlarda bajara olishlari, informatika va axborot texnologiyalari fanini mukammal o`zlashtirib, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq qilgan holda, mavjud darslik, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va ko`rgazmali vositalardan unumli foydalanib, dastur tuzishlari hamda uni amalda bajara olishlari kerak. Bunda asosan, talabalar ma’ruzalar matnlarini o`rganish, uni amaliyot ishlari bilan birgalikda olib borish hamda amaliy mashg`ulotlar materiallarini shaxsiy kompyuterlarda bajarish ko`nikmalarni hosil qilishi kerak.

Fanni o`rganishda mashg`ulotlarning ma’ruza, amaliyot mashg`ulotlari, mustaqil ta’lim shakllaridan foydalaniladi va ilg`or pedagogik texnologiyaning zamonaviy elementlari qo’llaniladi.

***Shaxsga yo`naltirilgan ta’lim***. Bu ta’lim o`z mohiyatiga ko`ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlantirishni ko`zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oquvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

***Tizimli yondashuv***. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog’i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`laganligi, yaxlitligi.

***Faoliyatga yo`naltirilgan yondoshuv.*** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

***Dialogik yondoshuv.*** Bu yondoshuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

***Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish***. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

***Muammoli ta’lim.*** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

***Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash*** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

***O`qitishning usullari va texnikasi***. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

***O`qitishni tashkil etish shakllari***: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

***O`qitish vositalari:*** o`qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot

texnologiyalari.

***Kommunikatsiya usullari:*** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

Ushbu o`quv qo`llanma 5111100 - “Cholg`u ijrochiligi va ansambli” fani bo`yicha yaratilgan bo`lib, unda mazkur fanning amaliy mashg`ulotlarining ta’lim texnologiyasi jamlangan. Mazkur o`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining bakalavr ta`lim yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

Mazkur o`quv qo`llanma 5111100 – “Musiqa ta`limi ta’lim yo`nalishi Cholg`u ijrochiligi sinfida milliy musiqiy qadriyatlarimizni chuqur o`rganish, milliy xalq kuylari va zamonaviy musiqani (milliy estrada) alohida yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e’tibor beriladi. Darslar jarayonida ta’limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida talabalarni yuksak ahloqiylik, milliy ong, milliy tuyg`u, milliy iftigor, Vatanni sevish va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi.

- Cholg`uda ijro etishni o`rgatish jarayoni o`quvchilar tomonidan ijro asoslarini ongli ravishda puxta ehallash, ijro uchun zarur bo`lgan ko`nikmalarni hosil qilish va ularni amalda qo`llay olish hamda mustaqil ijodiy fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, etsetik didini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur ta’lim yo`nalishidagi umumkasbiy fanlar ichida cholg`u ijrochiligi va ansambli fani talabalarga ijrochilik mahorati, cholg`uchilar ansamblini tashkil etish va ishlash, jamoaga rahbarlik qilish bo`yicha tavsiyalar berilgan.

Talabalar ushbu fanlarni birinchi kursdan boshlab o`zlashtirishlari jarayonida o`zbek xalq kuylarini ijro etish malakalarini o`zlashtirib O`zbekiston bastakorlari asarlari, chet el kompozitorlari asarlari, qardosh xalqlar xalq kuylari, rus bastakorlari asarlaridan namunalar ijro etish bo`yicha ijrochilik mahoratlarini shakllantirib boradilar.

# I-BOB. NAZARIY MASHG`ULOTLAR.

## 2.1. Cholg`u ijrochiligining rivojlanish davrlari.

### Reja

**1.** O`rta Osiyoda ijrochilik san'atining paydo bo`lgan davridan to XIX asrning 60-yillarigacha taraqqiyoti.

**2.** Xalq cholg`ularini uzoq o`tmishda paydo bo`lganligi.

**3.** Musiqa sohasida dastlab urma zarbli cholg`ular, damli cholg`ular, so`ngra torli mizrobli va torli-kamonli Musiqa cholg`ulari paydo bo`lganligi hamda tarixiy manbalari.

O`zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish milliy musiqiy cholg`ularimiz o`zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o`rin tutadi. Musiqiy cholg`ular azal-azaldan o`zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog`lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg`u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg`otib kelmoqda. Uning barcha o`ziga xos xususiyatlari va qirralarini o`rganish esa cholg`u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg`ular eramizdan oldingi o`n uchinchi ming yillikda paydo bo`lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg`ular qadimgi mehnat qo`shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog`liq bo`lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg`ular paydo bo`ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta‟kidladilar, shovqinli cholg`ular ta'sirini

kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o`ziga xos takrorlanmas go`zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg`ular eng qadimgi cholg`u asboblar turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog`liq.

Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o`zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg`ularning turlari shakllangan. Taniqli olima T. Vizgoning ma’lumotiga ko`ra mudovara (tarelka) harbiy cholg`ular qatoridan ham o`rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma’lum bo`lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg`usidek o`z shaklida etib kelgan. Zarbli cholg`ular - doyra, debu, daff, daz, dov, sanj, go`lachalar meloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan.

Doira va sanj cholg`usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olima T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholg`usining o`rtasidan tasma o`tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta’kidlaydi.

Samarqandning Urgut tumani Mo`minobod qishlog`idan topilgan miloddan besh ming yil oldin suyakdan ishlangan va beshta qo`l bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo`lgan nay qisman saqlangan bo`lib, o`sha davrda bunday tovush ko`lamiga ega bo`lgan cholg`uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to`liq cholg`u sifatida yetib kelmagan bo`lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg`ular paleolit davriga to`g`ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi.

Ushbu rasmlarda tasviri tushirilgan cholg`ular arxeologik ekspeditsiyalar natijasida qazib olingan bo`lib, ular dushmanlar va hayvonlar suyagidan hamda qamishlardan yasalgan eng oddiy damli

cholg`ulardir. Ular asta-sekin rivojlanib hozirgi nay, goboy va klarnet darajasigacha yetib kelgan.

Musiqiy cholg`ular juda qadimiy rivojlanish tarixiga ega. Arxeologik qazilmalar, qoyatoshlardagi va devoriy tasvirlar, tarixiy va ilmiy hujjatlar, adabiy manbalar, miniatyura asarlaridan musiqiy cholg`ular uzoq o`tmishda mavjud bo`lgani va turli xalqlar o`rtasida muloqot vositasi bo`lganligini isbotlaydi. O`zbek xalq cholg`ulari haqidagi bebaho ma'lumotlar A.Eyxgorn, V.Bertels, A.Boldirev, B.Riftin, A.Semyonov, R.Sadokov, T.Vizgo, O.Malkeevalarning tadqiqotlarida o`z aksini topgan. So`nggi yillarda musiqiy cholg`ularni o`rganishga bo`lgan qiziqish nafaqat bizning respublikamiz, balki chet davlatlarda ham sezilarli darajada ortdi. Ushbu yo`nalish bugungi kunda zamonaviy san'atshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Musiqiy cholg`ular ma'naviy madaniyat bilan uzviy bog`liq bo`lib, jamiyat rivojining ma'lum bosqichida shakllangan estetik didni ham aniqlaydi. Shuningdek, musiqiy cholg`ular va ularning madaniy yodgorliklardagi tasvirlari o`tmish davr hayotidan dalolat beruvchi haqiqiy va yagona ma'lumot manbai hisoblanadi.

Musiqiy merosning qaysiki turida ish olib borilishidan qat'iy nazar, tadqiqotchi uchun hududiy chegaralarni aniqlash biroz qiyinchilik tug`diradi, chunki davlatlarning zamonaviy chegaralanishi unchalik uzoq bo`lmagan davrda vujudga kelgan. O`rta Osiyo hududida Parfiya, So`g`diyona, Baqtriya, Xorazm kabi turli davlatlarning vujudga kelganligi bizga tarixdan ma'lum. IX-X asrlarda Eron va Afg`oniston davlatlari hududi Buxoro xonligining yerlari bo`lgan. XII asrda Xorazm hukumronligi shimoliy Hindistongacha bo`lgan juda katta hududni egallagan edi.

XIV asrda mo`g`ul imperiyasi vayronalarida Temurning buyuk saltanati yuzaga keladi va Samarqand uning markazi bo`lgan. Shuning uchun musiqiy cholg`ularning yaratilishi va rivojlanishini faqatgina bir xalqning mahsuli deb hisoblash noto`g`ri. Ular ko`p asrlik rivojlanish natijasida, o`zaro ta'sir va o`zaro aloqalar orqali vujudga kelgan.

Musiqiy cholg`ularning eramizgacha mavjud bo`lganligini tasdiqlovchi zamonaviy arxeologik topilmalar katta qiziqish uyg`otadi. Jumladan, yaqinda Samarqand viloyatining qishloqlaridan birida, ayol qabridan oltin va bronza taqinchoqlar orasida suyakdan ishlangan nay topilgan hamda uning bronza davriga mansubligi aniqlangan. Shuni ham aytish kerakki, o`zgacha ko`rinishga ega bo`lgan buben cholg`usi ham O`rta Osiyoda qadimda istiqomat qilgan aholiga ma'lum bo`lgan. Afrosiyobning terrakota haykalchalariga qarab, lyutnya (ud) so`g`diylarning sevimli cholg`usi bo`lganligini aniqlash mumkin.

Cholg`uning katta va kichik hajmdagi, yumaloq va uzunchoq shakldagi, ammo asosiy jihatlari o`xshash bo`lgan turlarini uchratamiz (2-3 rasmlar). Ushbu tasvirlarda biz lyutnyaning torli-tirnama, kosaxonasi katta va dastasi kalta, bosh qismi orqaga qayrilgan turlarini ko`rishimiz mumkin. Bu cholg`u "kalta lyutnya" yoki ud nomi bilan mashhurdir.

Xalq cholg`ularini o`rganish bo`yicha ma'lumotlar yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o`z aksini topgan. Shuningdek, V.Belyaevning "O`zbekiston musiqa cholg`ulari" (1933), R.Gruberning "Musiqa madaniyati tarixi" (1941), I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" (1963), A.Karomatovning "O`zbek cholg`u musiqasi" (1972), T.Vizgoning "O`rta Osiyo musiqa cholg`ulari" (1980), A.Petrosyansning "Cholg`ushunoslik" (1990), A.Odilovning "O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik tarixi" o`quv qo`llanmasi (1995), A.Lutfullaev va T.Solomonovaning "O`zbek xalq musiqa cholg`ulari" o`quv-uslubiy qo`llanmasi (2005), A.Tashmatovaning "Musiqiy cholg`ular muzeyi Katalogi" (2006), A.Lutfullaevning "O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik san'ati tarixi" o`quv qo`llanmasi (2006), S.Saidiyning "Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg`ular" nomli o`quv qo`llanmasi (2008) xalq cholg`ularini o`rganishga bag`ishlangan.

V.Belyaevning "O`zbekiston musiqa cholg`ulari" nomli kitobi 1933-yili Moskvada nashr etilgan bo`lib, u 7 bobdan iborat. I-bob zarbli, shovqinli, tilchali va rezonansli cholg`ularga bag`ishlangan.

II-bobda damli cholg`ular, III-bobda torli cholg`ular haqida ma’lumotlar berilgan. IV-bob o`zbek musiqa cholg`ularining ansambllarda qo`llanilishi, V-bob o`zbek musiqa cholg`ularining avvalgi (eskicha) vazifalari, VI-bob o`zbek xalq cholg`ularning tarixiy ahamiyati, VII-bob o`zbek musiqa cholg`ularining O`zbekiston musiqa madaniyatini qurishda qo`llanilishi kabi ma’lumotlarni o`z ichiga qamrab olgan. Ushbu kitobda o`zbek musiqa cholg`ulari haqidagi bebaho ma’lumotlar o`rin olgan.

XIX Asrning ikkinchi yarmida o`zbek xalq cholg`ulari ijrochiligi sohasida jiddiy o`zgarishlar yuz berdi: yangidan-yangi shakllar paydo bo`ldi. Xalq ijrochiligi an’analari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomonlarini yorituvchi kuy va qo`shiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doirachi, naychi, surnaychi, bulamonchi, g`ijjakchi, qashqar va afg`on rubobchilari paydo bo`ldi. Xalq cholg`ulari musiqa ixlosmandlari orasida keng yoyildi. Ular “Navro`z” bayramlarida va shu singari xalq sayllari va tomoshalarida, hosil bayramlarida faol ishtirok etdilar. Cholg`ular orasida musiqa tovushlarini yozib ko`rsatadigan maxsus belgilar tizimini (notatsiya) yaratishga intilish paydo bo`ladi. Buni amalga oshirish shoir va musiqachi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasib etadi. Iste’dodli musiqa ijrochisi, mohir tanburchi va g`ijjakchi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog`ida nota bo`yicha kuy chalayotgan cholg`ularni ko`rib hayratga tushdi.

Mirzaboshi-Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgaridan diliga tugib yurgan niyati - maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi. Cholg`uchi tanbur chizig`ida joylashgan ladlar miqdoriga muvofiq ravishda o`zida 18 bo`ylama chiziqni mujassam etgan tabulatura yozig`i – “Xorazmcha tanbur notatsiyasi” ni kashf etdi. Ladni bosish joyi nuqtalar bilan belgilandi. Chiziq ustidagi va ostidagi nuqtalar bilan tanbur torlarini usti yoki ostidan chertish soni ifodalangan. Bu Xorazm tanbur yozuvi o`ngdan chapga o`qilgan.

Muallif Xorazm olti yarim maqomining birinch maqomi “Rost” ni cholg`u va aytim yo`llarini yozib oladi. Bu ishlarda o`g`li Mirzo Matrasulboy yaqindan yordam beradi. Muhammad Rahimxon (Feruz) ning yordamida mashhur xattotlar tomonidan nusxalar ko`paytiriladi. Nusxalardan bittasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, 1tasi O`zbekistondavlat konservatoriyasida saqlanib kelinmoqda. Mukammal bo`lmasada, bu yangi nota yozuv uslubi ijrochilik tarixiga musiqa merosini yozib olish va saqlab qolish yo`lidagi ilk urinish sifatida kirdi. Notatsiya muallifi katta musiqa arbobi va o`qituvchisi ham edi. Xudoybergan Muxrkan, Xudoyberdi Mahsum, Bobojon bo`lamonchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov, Matniyoz Yusupov va ko`pgina boshqa taniqli sozanda va xonandalar undan dutor, tanbur, g`ijjak, bo`lamon, surnay, doyra va boshqa cholg`ularchalishni o`rganishgan.

XX asrning 20-yillarida o`zbek musiqa san’ati jadal ravishda taraqqiy eta boshladi. Musiqa o`quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqand, Farg`ona (1919) va Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o`zbek xalq cholg`ulari hamda ba’zi yevropa musiqa cholg`ulari (fortepiano, skripka va damli cholg`ular) ni chalish o`rgatilar edi. Shu tufayli respublikaning ko`pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi.

O`zbekistonda 1920-yillardan boshlab an’anaviy ijrochilik ansambllari asosida turli tarkibdagi o`zbek xalq cholg`u ansambllari tashkil etila boshladi. Viloyat markazlari: Marg`ilon, Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg`ona va Qo`qonda milliy cholg`ular ansambli tuzildi va ular tarkibida xalq musiqa san’atining yirik namoyandalari Mulla Tuychi Toshmuhammedov, To`xtasin Jalilov, Berkinboy Fayziev, Abduqodir Ismoilov, Hayit Oxun, Davlat Oxun, Zokir Eshon, Ahmadjon Umrzoqov, Rustam, Ashurali Yusupov va boshqalar birgalikda ijodiy faoliyatlarini boshlaganlar.

O`zbek xalq cholg`ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishning ilk qadamlari (tajribalari) o`tgan asrning 20-yillari

va 30- yillarining boshlariga to`g`ri keladi. Ushbu g`oya birinchi bo`lib toshkentlik mashhur hofiz Shorahim Shoumarov, xorazmlik ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, toshkentlik mashhur sozgar Usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirildi.

Ularning o`z oldiga qo`ygan asosiy maqsadlari - musiqiy cholg`ularning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida cholg`u diapozonini (eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo`lgan oraliq) kengaytirishdan iborat edi. Hammamizga ma'lumki, milliy musiqiy cholg`ularimiz azal-azaldan faqatgina xona sharoitida ijro etishga mo`ljallangan bo`lib, ularning tembr xususiyati ham aynan shunga mos edi. Asta-sekin cholg`ularda keng davralar va katta sahnalarda ijro etishga to`g`ri keladi. Mavjud cholg`ular esa davr talabiga javob bermay qoladi.

Shunda sozanda, hofiz va sozgar ustalar cholg`ular tovushini kuchaytirish kerakligini tushunib yetadilar va o`zlarining ilk g`oyalarini amalga oshira boshlaydilar. Natijada dutor, tanbur va g`ijjak1arning bir necha tajribaviy turlari yaratildi.

O`zbek xalq cho1g`ularida ijrochilik madaniyatining o`sishi, jahon klassik kompozitorlari asarlarining o`zlashtirilishi, O`zbekiston kompozitorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishi o`zbek xalk cholg`ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo`ldi. Shu bilan birga yuqori malakali ilmiy-pedagogik va ijrochi kadrlarni tayyorlash masalasi ham kun tartibiga qo`yi1di. O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent (hozirda O'zbekiston) davlat konservatoriyasi faoliyati bilan chambarchas bog`1iq bo`lgan.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.**

**1.** O`rta Osiyoda ijrochilik san'atining paydo bo`lishi haqida gapiring.

**2.** XIX asrning 60-yillarigacha ijrochilik san'atining taraqqiyoti haqida gapiring.

**3.** Xalq cholg`u1arini uzoq o`tmishda paydo bo`lishi haqida gapiring.

**4.** Musiqa sohasida dastlab urma zarbli cholg'ular, damli cholg`u1ar, so`ngra torli-mizrobli va torli-kamonli musiqa cholg`ulari paydo bo`lganligi hamda tarixiy manbalari haqida ma'lumot bering.

## 2.2. Milliy cholg`u turlari

### Reja

**1.** Cholg`ularning takomillashtirilishi

**2.** Cholg`u turlari

XX-asr boshlarida (1933 yil) B.M. Belyayev o`zining "O`zbek cholg`uasboblari" kitobida o`zbek xalq cholg`ularini rekonstruksiya qilish vatakomillashtirish muammosini ko`tarib chiqdi. Universal nota yozish vositali sifatida, Yevropa nota yozuvi asosida o`zbek musiqa cholg`ularining tuzulishini aniqlashni taklif etdi. Natijada, bu borada zamonaviy ijrochilik talablariga javob beradigan cholg`u turlari paydo bo`la boshladi. Chang, g`ijjak cholg`ulariga qo`shimcha torlar qo`yildi. Usta Usmon Zufarov ko`plab dutor, tanbur, g`ijjaklarni turdosh turlarini yaratdi.

Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustiga uzoq ish olib bordi. Natijada changning yuqori registrini qo`shimcha torlar va haraklar hisobiga kengaytirdi. Usta Usmon Zufarov va Yunus Rajabiy hamkorligida dutor bas, g`ijjak bas, g`ijjak alt namunalari yaratildi va orkest tarkibiga kiritildi. Shu davrda musiqa cholg`ularini yasash uchun maxsus ustaxonalar ochila boshlandi. Namanganda usto Ro`zimat Isaboyev, Buxoroda usta Hoji ota, usta Tohirjon Davlatov, usta Najmiddin Nasriddinovlar, Toshkentda qo`shnay, surnay cholg`ularini taniqli sozandalar Xayrulla Ubaydullayev, usta Qayum surnaychilar takomillashtirdilar.

A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh ustalar birlashib, Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida o`quv cholg`u orkest sinfida

yangi cholg`ularni sinab ko`rishadi.

1940 yillarda xalq cholg`ularining xromatik yarim tovushqatoriga ega 12 bosqichli turlari ancha ko`paydi. 50-yillarga kelib sinov tajribaxonasida Qirg`iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog`iston xalq musiqa cholg`ulari ham rekonstruksiya qilindi va takomillashtirildi.

***O`zbek xalq cholg`u turlari tavsifi:***

1. Doira. Ilmiy tadqiqotlar dastlabki cholg`u asboblari paydo bo`lishini eramizdan avvalgi XII ming yillikka bog`lashadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg`ular paydo bo`lgan. Bular nog`ora, chindovul, childirma, dovul va doiralardir.

Doira iborasi ba’zan “dapp”, “childirma”, “chirmanda” deb yuritiladi, ijrochini esa dappchi-childirmachi, Buxoroda doiradast, Farg`onada chirmandachi,Samarqandda doirachi deb yuritiladi.

## Doira



**<u>Doira:</u>** oddiy aylanma shaklda, diametri taxminan 400 mm, bo`lgan, gardishini uzum zangidan qilingan, doira gardishiga buzoq yoki baliq, ba’zan toy terisidan qoplanadi. Gardishga qirqqa yaqin xalqachalar taqiladi. Ular <u>*shing`iroq*</u>, <u>*shilshila*</u> deb yuritilib ijrochi qo`shimcha sado beradi.

Doirada 2 ta asosiy tovush bor. Biri past “bum”, ikkinchisi baland “bak”, ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush “bakko” (tak-tak) yoki (bak-bak) “takka” deb yuritiladi. Agar taktlar o`rtasida pauza kelsa “ist” so`zi qo`llanilgan. Baka - bum - bak – ist – baka - bak. 30 yillardan so`ng doira usullari, ya’ni “bum” chiziq ostiga, “bak” esa chiziq ustigayozilib ijro etiladigan bo`ldi.

## Nog`ora



**<u>Nog`ora:</u>** Nog`ra sopoldan yasalgan bo`lib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Ko`pincha ikkitosh birga chalinadi, ikkalasi bir-biridan kvarta soziga farq qilishi lozim. Nog`oro aniq balandlikka ega emas, baland tovush “bak”, past “bum”, asosan ikkita ingichka cho`p bilan urib chalinadi. Nota yozuvida “bum” chiziq tagida, bak chiziq ustida yoziladi. Surnay chalganda usulni nog`ora bilan ushlaydilar.Nog‘ora — urib chalinadigan musiqa asbobi. Nog‘oraning ko‘p xili mavjud.

Kosasi tuvaksimon bo‘ladi. Yog‘och va sopoldan yasaladi.Ustiha yvon terisi bilan qoplanadi.

Qo‘shnog‘ora karnay va surnaylar bilan qo‘shilib o‘zbek milliy ansamblini tashkil etadi. Hozirgi kunda ham bu asboblar to‘y-u tomoshalarda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda nog‘oraning *do‘l nog‘ora*, *rez nog‘ora* va *ko‘s nog‘ora* kabi turlari bor. Do‘l nog‘ora yo‘g‘on tovush chiqaradi va diamtetri 60 sm cha bo‘ladi. Rez nog‘oraning tovushi ingichka bo‘ladi va diamtetri 20-30 sm bo‘ladi. Ko‘s nog‘oraning diamtetri 30-40 sm bo‘ladi va shuning uchun rez nog‘oranikidan yo‘g‘onroq, do‘l nog‘oranikidan ingichkaroq tovush chiqaradi.

## Safoyil



**<u>Safoyil:-</u>** musiqa asbobi Xitoy, Uyg’ur xalš cholg’u asbob sifatida keng tarqalgan musiqa cholg’usidir. Safoyil cholg’usining ko’pincha raqsona, marshona kuylarda uchratish mumkin. Uyg’ur xalq raqslarida ham keng qo’llaniladigan musiqa cholg’usi hisoblanadn.

O’zbekiston va Tojikistonda bu cholg’u asbobi keng qo’llanilib kelmoqda. Safoyil musiqa asbobi, tuzilishidan shiqildoqli urma zarbli cholg’u asbobi guruhiga kiradi. Safoyil ikki bo’lak qattiq yog’och kaltakchasidan iborat bo’lib, bu kaltakcha mayda temir halqachalar taqilgan katta temir xalqachaga o’rnashtiriladi.

Safoyilni silkitib yelkaga urib shovqinli, turli xil murakkab tovush chiqarishadi. Ikkita kaltakchasini uzunligi 400 mm ni tashkil etadi. Safoyil cholg’uchisi yelkaga urib va havoda tebratib har xil kerakli usullarni chiqaradi.

"Soqiynoma" va "Qashqarcha" kuylarida ham safoyil cholg’usi ishlatilib, ritm berib, kuchli hissani tovush bilan yetkazib beradi.

***Qayroq***



**<u>Qayroq:-</u>**O’rta Osiyo xalqlarining o’rtasida keng tarqalgan urma zarbli musiqa asbobi hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda qadimda saroy marosimlarida bo’ladigan bazmlarda qayroq ijrosi ko’p ishlatilgan. Asosan bu cholg’uni ayollar ijro etishgan.

O’zbekistonda jumladan Xorazm va Buxoroda qayroq cholg’usini ko’p ishlatadilar. Raqslarda ijro etiladigan qayroq cholg’usi, yapaloq, tekis qilib silliqlangan to’rtta toshdan iborat bo’ladi. Ijrochi har bir qo’liga bir juftdan ushlab, qayroqlarni silkitib yoki titratib har xil kerakli usullarni beradi. Qayroqda biror kuy, raqs yoki ashula usulini (ritmini) ijro etish paytida, ijrochi har xil milizm ya’ni milliy bezaklardan foydalanadi.

Odatda qayroqni raqs tushuvchi o’zi chaladi. Raqqos yoki raqqosa qayroqni bir-biriga urilishidan chiqqan ritmik tovushni o’z raqsiga jo’r qiladi. Qayroq cholg’usida ijro etiladigan kuylardan: «Qayroq o’yini», «Norin-norin», «Xorazm lazgisi» va shunga o’xshash raqsona kuy qo’shiqlardir.

## Chang



**<u>Chang:</u>** Ko`hna va qadimiy cholg`ulardan. Forobiy asarlarida o`sha davrdagi changning 15 ta tori bo`lganligi aytiladi. XVII asrda yashab ijod qilgan musiqashunos olim Darvesh Ali Changchiy bu sozni mukammal ijrochisi bo`lgan.

Tarixda chang cholg`usining juda ko`plab namoyondalari bo`lgan. Chang cholg`usidan o`zbek, tojik, uyg`ur va rus xalqlari ham keng foydalandilar. Ruslar uni “Simbal” deb atashadi. U tut, yong`oq, o`rik yog`ochlaridan yasaladi.

Changning quloqlari 76 ta bo`lib, u chang korpusining o`ng tomoniga o`rnatiladi, pardalari xromatik yarim tondan iborat. Changni chalish uchun ishlatiladigan cho`p g`arovdan yoki qamishdan ishlanib, uchiga rezina o`rnatiladi.

***Ud***



**<u>Ud: </u>** Juda qadiıniy cholg`u sozlaridan. Ud arabcha so`z bo`lib, bayram, to`y-tomoshani, xursandchilikni ifodolovchi “iyd” iborasining sinonimidir. Udning dastlabki nomi “Barbad” bo`lganligi ham ayrim manbalarda ko`rsatiladi. Barbad ikki so`zdan iborat bo`lib, bar-qomat, bad-o`rdak ma`nolarida ishlatiladi. Uning eng takomillashgan shakliga ud deyiladi.

Qadimiy Udlar ikki torli bo`lib, “zir” va “bam” deb nomlanadi. Bam pastdagi, zir yuqoridagi ingichka tor. Keyinchalik uch, to`rt torli bo`lgan, Forobiy unga beshinchi torni o`rnatgan. Ud (arab. — qora daraxt) — torlimezrobli qad. musiqa asbobi. Arab, turk, fors, Kavkaz (ozarbayjon, arman) va Markaziy Osiyo (o‘zbek, tojik) xalqlarida keng qo‘llaniladi. Katta, noksimon va yupqa qopqokli kosaxona, kalta va enli dastaga ega.

Tovushi yumshoq va mayin. O‘zbekistonda musiqa kollejlari va O‘zbekiston davlat konservatoriyasida Ud. sinflari mavjud. U., asosan, jo‘rnavoz (mumtoz musiqa ansambllari) va yakkanavoz soz sifatida qo‘llaniladi.

***Rubob***



**<u>Rubob:</u>** O`rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatida keng qo`llaniladi. Tut, chinor, o`rik yog`ochlaridan ishlanib, kuchli jarangdor tovush beradi. Qadimgi rubob pardalari ichakdan bo`lgan. 1936-yildan boshlab po`lat simdan (5-simi ichakdan) chalinadi. Rubob asbobi bir necha turlardan iborat. Bular rubob prima, rubob sekunda, rubob tenor deb nomlanadi.

Qashqar rubobining uz. 80—100 sm, cho‘michsimon kosasi tut va b. qattiq daraxt g‘o‘lachalaridan o‘yib yasaladi va ustiga teri krplanadi. Dastasi uzun, uchi orqasiga qayrilgan bo‘lib, kosadan boshlanadigan joyida qo‘chqor shoxiga o‘xshash 2 ta gajagi mavjud. Dastasidagi pardalari (19 tadan 23 tagacha, oldin ichakdan, hozir metalldan qilinadi) xromatik tovushqatorni tashkil qiladi. Qashqar Rubobining 5 ta tori, odatda, kvarta kvinta oralig‘ida sozlanadi. Diapazoni 3 oktavaga yaqin. Tovushi jarangdor.

## Afg`on rubobi



**<u>Afg`on rubobi</u>:** Hindiston, Pokiston, Eron, Afg`oniston, O`zbekiston, Tojikistonda keng tarqalgan. Nomlanishiga ko`ra Tojik rubobi, Buxoro rubobi, Badaxshon rubobi ham deyiladi. Ushbu cholg`uning usti teri bilan qoplangan, katta chuqur o`yma kosasining toraytirilgan, yon tomonlaridan yuqori qismiga yupqa qopqoq yelimlangandir. Odatda beshta chalinadigan asosiy pay tor, hamda yon quloq (go`shak) larga tortiladigan 10-11 ta aks-sado beruvchi sim torlarga ega bo`lib, asosiy torlar o`zaro kvartaga sozlanadi. Aks-sado beruvchi simlar esa pog`onama-pog`ona ko`tariluvchi sekundalarni tashkil etadi. Torlari simdan va ichakdan bo`laddi.

***Tanbur***



**Tanbur**: manbalarda yozilishicha yunoncha so`zdan olingan bo`lib, tan – yurak, dil, bur tirnovchi, qitiqlovchi degan ma’noni beradi. Asrlar osha ota- bobolarimizdan bizning davrimizgacha yetib kelgan bir qator musiqiy cholg`ular orasida tanbur o`zinig sehrli, maftunkor, dillarga orom beruvchi sadosi, xush kayfiyat baxsh etuvchi qudratga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalarga murojaat etib tanburning nafaqat o`zbek, tojik, uyg`ur xalqlarida, shuningdek, qo`shnimamlakatlar –Afg`oniston, Eron, Turkiya, shimoliy Hindiston hamda ayrim Arab mamlakatlarida ham azaldan mavjud bo`lganidan voqif bo`lamiz. Ana shu mamlakatlarda tanburning turli shaklda eramizdanavvalgibirinchi asrdanoq keng ishlatib kelganligini qadimiy yodgorliklar, turli arxeologik topilmalar, minyaturalardagi tasvirlar hamda ko`pgina yozma manbalar tasdiqlamoqda. Zamonasining ulug` mutafakkiri va olimi “Abu Nasr Muhammad Al-Farobiy o`zining kitobul musiqiy Al-Kabir”- (musiqaga doir katta kitob) asarida tanbur sozini o`sha davrlarda, ya’ni X-asrda xurosonli va bog`dodli kabi turlari mavjud bo`lganligi haqida ma’lumot berilgan. Keyinchalik XV-asrda

Samarqandda Amir Temur saroyida uzoq yillar davomida o`zining benazir san’ati bilan xizmat qilib dovrug` qozongan sozanda Xo`ja Abduqodir tanburining turkiy turlari bilan bir qatorda “Nay tanbur” deb nomlanuvchi kamonli turi mavjud bo`lgan. Mazkur cholg`u hozirda “Sato” deb ataladi. Tanbur uzun va yo`g`on dastasiga qalin pardalar bog`langan hamda yupqa- yo`g`on qoplamali noksimon kosaxonasi ustidagisi maxsus xarrakkdan o`tgan uch to`rt simli noxun bilan chertib chalinadigan cholg`u hisoblanadi.

Tanbur sozining qadimiy turlaridagi torlar XVI asrga qadar ipakdan bo`lganligini, XVII asr musiqashunos olimi Darvesh Ali Changiy o`z risolasida bayon etib, uning ta’kidlashicha mohir ijrochilar tanbur tovushining tembri yanada jozibador bo`lishi uchun kumush va mis simlardan foydalanishgan. Mazkur cholg`u keyinchalik bizning davrimizdagi kabi ko`rinishga kelgan. Bu tanbur sozining davrlar o`tishi bilan yanada takomillashganidan dalolat beradi. Tanburning pardalardagi baland-pastlik darajasini ikki xil Bas va Skripka kalitlarida notalarda ifoda etganda yozilganiga nisbatan tanburda bir oktava past eshitiladi. Shashmaqomda tanbur turliicha ya’ni buzruk, dugoh, segoh, iroq maqomlarida kvartaga, rost maqomida esa butun parda katta sekunda sozlanadi.

Bu maqomlarga mos keladigan tovushqatorlar quyidagicha:

Tovushqatorlar bir oktava yuqori berilmoqda. Tanburning boy tasviriy imkoniyatlarini hozirgi avlod vakillariga meros qilib uzluksiz davomiyligini ta’minlangan san’atimiz fidoiysi Otag`iyos Nazirov, Matyoqub Xattorov, Sultonxon Xokim, Shaborat Qori Siroj, Usta Toir, Ro`zimatxon Asadqori Lutfullayev, Fazliddin Shaxobov, Shonazar Soxobov, Boboqul Fayzullayev, Maxsudxo`ja Yusupov, Yoqub Davidov kabi mashshoqlarning nomlari yoshi ulug` musiqa ixlosmondlarining yodlarida va qalblarida muhirlanib qolgan desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. Respublikamizning turli vohalarida yashab ijod qilgan bu ajib simolar ijrochilik san‟atida o`ziga xos betakror uslub hamda maktab yaratganlar.

Tanbur mumtoz she’riyat namayondari: Lutfiy, A.Jomiy, A.Navoiy,

M.Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Xislat, Xurshid, Habibiy va boshqa ko`plab g`azaliyot ahlining qalb ardog`ida bo`lganligini ularning ijodlari orqali anglaymiz. Barcha mumtoz musiqiy merosimiz namunalari xususan maqom ashulalar azaldan yillar davomida tanbur jo`rligida atoqli hofizlar tomonidan ijro etib kelingan va bu an‟ana hozir ham davom etayotganini alohida ta’kidlab o`tishshimiz joyizdir. Tarixga nazar tashlab Ota Jalol Nosirov, Mulla To`ychi Toshmuhammedov, Levi Boboxonov, Sodirxon Hofiz, Shorahim Shomurodov, Shoynazar Sohibov, Berkinboy Fayziyev, Xo`raxon Sultonov, Maruf Xo`ja Boxodirov, Shoqosim Shojalilov, Rasul qori Muhammadiyev, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi atoqli maqomchi hofizlar uchun tanbur doimiy jo`ranavoz soz bo`lganligini voqif bo`lamiz. Har qanday kasbu-kor, ilm-ma’rifat, madaniyat va san’tning rivoj topishi shakllanishi avlodlari shajarasi zanjirining uzulmasligidadir. Jumladan musiqa ijrochiligi san’ati ham bevosita avloddan- avlodga sayqal topib o`tib kelayotgan buyuk ne’matlardan biridir. XX asrda yashab ijod qilgan mashxur mumtoz tanburchi sozandalarning tabarruk nomlari tarixzarvaraqlariga muhrlab qolingan. Jumladan: Risqi Rajabiy, Ma’rufxon Toshpo`latov, Jo`ra Saidaliyev, Maxsud xo`ja Yusupov, Abdumutal Abdullayev Rasul Qori Mamadaliyev kabi sozandalardan meros qolgan ijro asarlari ma‟naviy boyligimiz hisoblanadi.

Ustoz Turg`un Alimatov an’anaviy ijrochilikda musiqiy asarning ta’sirchanligi inson ruhiyatiga xushkayfiyat baxsh etishi, ma’naviy ozuqa berishi, kuyning milliy ijro bezaklari bilan to`laqonli ifoda etishidir. Uning uchun sozanda yuksak musiqiy did va mahoratga ega bo`lishi lozim. Jumladan tanbur sozi ijrochiligida keng qo`llaniladigan turli nola, qochirim zarb kabi musiqiy bezaklar asar ijrosidagi yetuklikni ta‟minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda tanbur sozi ijrochiligida yorqin yulduz bo`lib o`zining qalb qo`ri, sehrli barmoqlari bilan chertgan sozdan xushnavo taratib yuraklarni zabt etgan “Tillo”,“Soxibiy” larni ijro etgan.

O`zbekiston xalq artisti: Professor Turg`un Alimatovni o`zbek milliy musiqa

ijrochiligida betakror uslub, maktab yaratgan san’at arboblardan biri desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. San’atimizning rivoj topishi, shakllanishi avlodlar shajarasizanjirining uzilmasligidadir.

***Dutor***



**Dutor:** Dutor tojikcha so`z bo`lib, ikki tor degan ma’noni bildiradi. tojik, uyg`ur, turkman, qaraqalpoq xalqlarining eng sevimli cholg`usi. Kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo`llailadigani dutor-alt deb ataladi. Kichik oktava lya, mi notalariga sozlanadi. Bunga o`xshash cholg`ularni qozoqlarda “do`mbra”, qirg`izlarda “qo`biz” deb ataladi. Dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog`langan diatonik tovushqatordan iborat dutorlar xalq dutorlari deb aytiladi. Dasta va kosa qismlardan iborat, ularni birlashtiruvchi qismi “bo`g`iz” deb ataladi. Kosasi o’yma va qoburg`alarning birlashganidan yasalishi mumkin. Uning dutor prima, dutor sekunda, dutor bas, dutor kontrabas turlari hozirda musiqa amaliyotida qo’llaniladi.

***Qonun***



**Qonun:-** yaqin va o’rta Sharq mamlakatlari cholg’usi hisoblanadi. Xususan, qonun cholg’usi Forobiy tomonidan musiqa nazariyasining qonuniyatlarini ifoda etuvchi cholg’u sifatida ixtiro etilgani haqida ma’lumotlar bor. Bu cholg’u Armaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Sharqiy Turkiston markaziy Osiyoda keng ishlatilgan.

XVII asrda Darvishali Changiy yozib qoldirgan ***«Risolayi musiqiy»*** da qonunning qadimiy cholg’u asboblaridan ekanligi qayd qilinadi. Bu cholg’u bizda XX asrning 30-yillardan boshlab ishlatilmadi va nihoyat 1978-1980- yillarda mohir sozanda, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyev tomonidan yanada qaytadan o’lkamizga olib kelindi va ishlatila boshlandi.

Cholg’ular haqidagi kitobning arfaga bag’ishlangan bo’limida, Forobiy eslatgandek ***«Ma’zif»*** cholg’usi ovozining yo’nalishi jihatidan arfaga yaqin, sadosi ochiq torlarning tebranishi orqali hosil bo’ladi. Safiuddin Urmaviyning XII asr yozishicha, ikki turdagi qonun mavjud bo’lgan.

Hozirda qo’llaniladigan qonun ko’p torli, yassi sathli, trapsiya ko’rinishdagi cholg’udir. Uzunligi 800-900 mm, eni 380-400 mm bo’lib, chinor, tut, yong’oq, o’rik daraxtlari yog’ochidan tayyorlanadi.

***G’ijjak***



**G`ijjak:** Kosasi qovoqdan, kokos yong`og`idan yasalib, ichi kovak qilib o`yilgan. Kosasi ustiga baliq terishi va pufak qoplangan. Kosasining pastki qismiga tayoqcha o`rnatilib, ijrochi uni tizzaga qo`yib, o`tirgan hamda chalgan. Dastasi dumaloq bo`lib, kosaga yaqinlashib borgan sari kengaytirib ishlangan. Hozirda asosan 4 ta tori joriy qilingan. 4-tor kichik oktava sol, 3-tor 1-oktava re, 2-tor 1- oktava la ga va 1-tor 2-oktava mi ga sozlanadi. Turlari – g`ijjak alt, g`ijjak bas, g`ijjak kontrabas.

***Qo’biz***



**<u>Qo`biz:</u>** Torli kamonchali cholg`u tori 2 ta bo`lib, har bir tori bir to`plam qildan iboratdir. (ot quyrug`idan olingan). Qozog`istonda, Qirg`iziston, Turkmaniston, Qoraqalpoq xalqlarida keng tarqalgan.

***Sato***



**<u>Sato:</u>** Tashqi ko'rinishdan tanburga o`xshaydi. Kosasi tut, yong`oq-o`rikdan o`yib yasaladi. Uni noxun bilan chalsa ham bo`1adi. Asosiy torlari 3 ta, ba'zan 4 ta bo`lib, bu torlar metal misdan iborat bo`ladi.

***Nay***



**<u>Nay</u>:** Tuzulishiga ko`ra barmoqlar bilan berkitilgan 6 teshikcha, diatonik tovushqatorga ega bo`lib, hajmi 1-oktava lyadan, 4-oktava re gacha. Notalar skripka kalitiga yoziladi.

***Surnay***



**<u>Surnay</u>:** Uning hann chap va o`ng qo`1 barmoqlari bilan yopiladigan 6 ta teshikchasi bor. 7-teshik esa pastki tomonda bo`lib, chap qo`lning bosh barmog`i bilan bekitiladi. Hajmi kichik oktava lya dan 2-oktava mi ga qadar. Ovozi baland bo`lib, asosan to`y-tomosholarda ijro etib kelinadi.

***Qo`shnay***



**<u>Qo`shnay:</u>** Ikki qamish naychadan iborat bo`lib, ularga maxsus tilcha o`rnatiladi. Chalishda ikkita naycha bir xil puflanadi, har ikkala naychada joylashgan 7 ta teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi 1- oktava rye-dan 2-oktava sol gacha.

***Karnay***



**<u>Karnay:</u>** Tuzilishi ikki, uch bo`lakdan iborat bo`1adi. Uzunligi 2 metrdan ortiq, puflab chalinadigan qismi oxirida mayda teshikcha bor. Karnay cholg`u ijrosida tovushlar sekunda intervaliga o’xshaydi, asosiy tovushdan yuqori sof kvinta yoki kichik septima intervali chalinadi. Asosan, bayramlar,to`y-tomosholarda doira, surnay jo`rligida chalinadi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.**

**1.** Zarbli cholg`u1arga ta`rif bering?

**2.** Torli cholg`u1arga ta'rif bering?

**3.** Puflama cholg`ularga ta'rif bering?

**4.** Ansambl turlari to`g`risida ma'lumot to`plang.

## 2.3. Uslubiy ko`rsatmalar.

**Reja:**

**1.** Ansambl ijrochiligining umumiy qoidalari.

**2.** Ansambl cholg`ularini sozlash.

**3.** Ansambl cholg`u1arini saqlash.

Ansambl ijrochiligida sozandalarning bir xi1 ijro uslubida chalishlari juda muhimdir. O`zbek xalq cho1g`ulari ansamblidagi ijro uslubi va rubobchilar, dutorchilar ansamblidagi ijro uslublari bir-biridan farq qiladi. Xalq cholg`ularidan tuzilgan ansambldagi ijro uslubi asosan asarning xarakterini ochib berishga qaratilgan bo`1ib, ansambl ijrochiligi uslubidan kelib chiqqan bo`lsa, dutorchilar ansamblidagi ijro uslubi dutor ijro imkoniyatlarini, undagi rang-barang usullarni, dutorning o`zigagina xos bo`lgan jozibani yaqqol ko`rsatib berish imkoniyatini beradi.

Yuqorida aytilganidek, har qanday ruhiy holatda va har qanday shart- sharoitda hann o'qituvchi amaliy darsga ko'tarinki ruhda, ijrochilik kayfiyatida kirib kelmog`i va tez fursatda talabalarni ijroga tayyorlamog'i zarur. Chunki ana shu ruhiyat va ko'tarinki kayfiyat o'qituvchidan talabalarga ko`chadi va ular o`tiladigan hamda o'rganiladigan asarni tez va puxta o`rganadilar.

Ansamblda ijro mahoratini egallash, avvalo, to`g`ri o`tirish, cholg`u sozini to`g`ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini egallab borish, ijroharakatlarini to`g`ri shakllantirish hamda jamoa bilan ijro

qoidalariga to`liq amal qilishni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

**1.** Ansambl bilan ijro qilish vaqtida cholg`uchining gavdasi to`g`ri bo`lishi vatashqi ko`rinishi chiroyli bo`lishi lozim.

**2.** Cholg`uchilar o`rindiqqa suyanmasdan, stulning yarmiga o`tirishi, chap oyoqoldinroq, o`ng oyoq orqaroq bo`lishi lozim.

**3.** Cholg`uchilarning o`ng qo`li to`g`ri joylashishiga, ijro harakatlarining erkinbo`lishiga erishish lozim.

**4.** Cholg`ucilar chap qo`l bilan cholg`u dastasini siqmasdan, qo`l kaftining dastaga tegmasligiga erishish lozim.

**5.** Cholg`uchilar kuyni boshlashda diqqat bilan o`tirishlari, ansambl rahbari yoki doirachining auftakti bilan birgalikda boshlashlari lozim.

**6.** Cholg`uchilar kuyni tamomlashda ham xuddi shunday doirachining usuliga muvofiq yoki umumiy ansamblning bir nafas bilan tamomlashiga diqqat qaratishlari lozim.

**7.** Cholg`uchilar ansambli ijrochiligida jamoa bilan ijro etish madaniyatiga rioya qilish, ijro paytida diqqat bilan o`tirish, nafaqat o`zining cholg`usi tovushini, balkiumumiy ansambl tovushini va shunga mos ravishda o`z cholg`usining tovushini nazorat qilib borishi zarur.

**8.** Cholg`uchilar ijro uchun qulay va to`g`ri holatni tanlash, qo`llarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to`g`ri o`zlashtirib borish har bir ijrochi uchun muhimdir.

Cholg`uchilar ansambli darsi boshlanguniga qadar talabalar cholg`ularni kamertonga yoki to`g`ri sozlangan fortepiano tovushiga sozlash tavsiya etiladi. Ansambl darsida esa cholg`uchilar tarkibidagi cholg`ularga qarab, masalan, nay, chang yoki akkordeon cholg`ulariga sozlash mumkin. Dars boshlanishidan oldin yoki birorta konsertda chiqish qilishdan oldin har bir cholg`uni toza qilib sozlash ansambl asarlarining mukammal eshitilishida katta ahamiyatga ega.

Cholg`uchilar ansambli fanining dastlabki mashg`ulotlarida cholg`ularni ansambl rahbarining o`zi sozlab beradi va asta-sekin shogirdlarini ham o`z Cholg`ularini mustaqil sozlashga o`rgatib boradi.

Xalq cholg`ularining aksariyat qismi teri bilan qoplangan yoki yog`och qopqoqli bo`lib, similar xarrak orqali o`tkaziladi. Shuning uchun ham cholg`ularni sozlash jarayonida torlar tagiga qo`yilgan xarrakning to`g`ri joylashishiga alohida e'tibor berish zarur.

Cholg`uni sozlashda avval ochiq tor sozlanib, keyin uning oktava pardasi bosilib, aniq sozlanganligiga ishonch hosil qilinadi. Agar tovush sof oktava eshitilsa, bu xarrak to`g`ri joylashganligidan darak beradi. Tori bosib chalganda ochiq parda oktava pardasidan baland eshitilsa, xarrakning o`rnashgan joyi tovush xonasidan uzoqlashtiriladi va aksincha, torni bosganda tovush oktavadan past sadolansa, xarrak tovush xonasi tomonga suriladi.

Natijada ochiq tovush oktava tovushi bilan bir xilligiga erishiladi. Birinchi ochiq tovush tiniq sozlanganidan so`ng, qolgan torlar ham shu tovushga nisbatan aniq qilib sozlanadi. Barcha sozlar aniq sozlanishiga erishilgandagina ansamblning umumiy sozini ham tiniq unison eshitilishiga erishiladi.

Ansambl cholg`ularining yaxshi saqlanishi mashg`ulot o`tkaziladigan xonining holatiga bog`liq. Ansambl mashg`uloti o`tkaziladigan xona keng, yorug`, harorati mo`tadil bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Ansambl sinfi mashg`ulot xonasida o`quv adabiyotlari, notalar, cholg`ular uchun kerakli pultlar, g`ijjak cholg`usi uchun konifol, barcha cholg`ular uchun torlar, cholg`ularning g`iloflarini soladigan shkaf va nota chiziqlari chizilgan sinf taxtasi bo`lishi kerak.

Ansambl sinfi xonasi cholg`ular, cholg`ularning applikatura jadvallari, nota savodxonligiga oid nazariy ma'lumotlar, taniqli bastakorlar va cholg`uchilarning rasmlari bilan jihozlangan bo`lishi maqsadga muvofiq.

Cholg`ular ansambl mashg`ulotlari xonasida saqlanishi lozim. Ularning yaxshi saqlanishi uchun har bir cholg`uning o`z g`ilofiga solinishi va shkafning taxtali tokchalariga saqlanishi lozim.

Dutor, tanbur, g`ijjak, doira kabi cholg`ularning dastasiga ip bog`lab ularni shkafning mixchalariga ilib qo`yish ham mumkin. Bundan tashqari har bir cholg`uning holati uchun javobgarlik hissini

birinchi mashg`ulotlardan talabalarga tushuntirib borish kerak. Chunki o`zbek xalq cholg`ulari ob-havo temperaturasi va namligiga juda ta'sirchandir. Cholg`uchi o`zi chaladigan cholg`usining ahvolini yaxshi bilishi, mashg`ulotlarda, mustaqil mashq qilganda va konsert jarayonlarida cholg`uni ehtiyot qilib saqlashi, cholg`uning ovoz sifati buzilib qolmasligini doimo nazorat qilib borishi lozim. Cholg`uchilar ansamblida talabalar orasidan ansambl uchun sardor saylanadi. Ansmbl sardorining vazifasi ansambl rahbariga yaqindan yordam berishdir. U ansambl mashg`ulotlarini uyushtiradi, talabalarning tartib-intizomini va umumiy davomatini nazorat qiladi. Ansambl mashg`ulot xonasida cholg`ular, jihozlar, o`quv va ko`rgazmali qurollarning yaxshi saqlanishini ta'minlaydi, o`qituvchining barcha tashkiliy ishlariga ko`maklashadi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.**

**1.** Dars boshlanishida o`qituvchi kayfiyatining talabaga ta'siri haqida gapiring.

**2.** Ansambl ijrochiligining umumiy qoidalarini sanab bering.

**3.** Cholg‘‘ularni sozlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

**4.** Cholg`ularning mashg`ulot xonasida saqlanishi bo`yicha nimalarni bilasiz?

**5.** Cholg`ularni saqlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

## 2.4. GIJJAK CHOLG`U IJROCHILIK TEXNIKASIGA OID MASALALAR

Texnika so‘zi cholg`u ijrochiligida qanday o`rin tutadi va nima uchun ijrochilik texnikasi deymiz? Ba’zida tezkor ijroni texnikaga yo`yamiz. Bu ne chog`liq to`g`ri. Texnika so`zi deyarli barcha jabhalarda ishlatiladi. Faraz qilaylik, paxta terish mashinasi ham texnika mahsuli. Mashina qo`l kuchidan ko`ra bir necha marta ko`proq va tezroq paxta teradi. Nima uchun? Mashinadagi yuzlab, minglab qismlarning har biri o`z vazifalarini (funksiyalarini) bir paytning o`zida aniq, to`g`ri, qoidaviy tarzda bajarganligi natijasida bunday tezkorlik vujudga keladi. Agar biror qismi noto`g`ri ishlasa yoki buzilsa bunday tezkor natijaga erishib bo`lmas edi, albatta. Demak, texnika faqatgina tezkorlikdan iborat emas ekan. Uni to`g`ri, aniq va qoidaviy harakatlar yig`indisi natijasida hosil bo‘ladigan tezkorlik desak to`g`ri bo`lar ekan.

Cholg`u ijrochiligida ham texnika birinchi navbatda necha davrlar mobaynida sinalgan, qat’iy isbotlangan qoidalarga rioya qilingan holda shakllantirilgan ko‘pgina bilim va ko‘nikmalarni to‘g‘ri bajarish ustiga qurilgan xarakatlar hamda xarakatlarning natijasida hosil bo‘lgan tezkorlik deyilsa ayni xaqiqat. Huddi shunday natijaga erishish uchun ko‘pgina bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida o‘zlashtirib o‘rganish kerak.

G`ijjakda tovush hosil qilish uslublari, shtrixlar, chap qo`l barmoqlarining cholg‘u dastasidagi joylashish holatlari (pozitsiya, applikatura), vibratsiya, flajolet, gamma va etyud kabilarning hammasi sozandaning asosiy quroli hisoblanadi. Garchan bu ko`nikmalar bilan baholi qudrat tanish bo`lsangizda, bular hususida yanada chuqurroq bilimga ega bo`lish maqsadga muvofiq. G`ijjakda ikki xil uslubda, asosan, kamon yurgizish va torlarni chertish orqali tovush hosil qilinadi.

### KAMON BILAN TOVUSH HOSIL QILISH USLUBLARI

Kamonning torlar ustidagi turli xil xarakatlari natijasida rang-barang tovushlar hosil qilinadi. Bular bir so`z bilan shtrix deb ataladi. Shtrixlar har xil bo`ladi . Ular kamonni tordan ko‘tarmay va sakratib ijro etiladigan guruhlarga ajratiladi.

## KAMONNI TORDAN KO`TARMAY IJRO ETILADIGAN SHTRIXLAR

***Detashe*** – boshlang`ich va asosiy shtrixdir. Bu shtrix tovushlarning xar birini alohida, kamonni pastga va yuqoriga yurgizish orqali hosil qilinadi.



Kamon harakati pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga almashayotganida tovushlar uzilmasligi, ravon va tekis ulanishi lozim. Detashe asarning xarakteri, sur’ati, dinamikasiga qarab kamonning butun uzunligi bilan hamda pastki, o‘rta va yuqori qismlarida ham qo‘llanadi.

***Legato*** – ikki va undan ortiq tovushlarni bir tomonga, ya’ni kamonni pastga yoki yuqoriga harakati bo`yicha ulab ijro etishdir. Bu shtrix orqali g`ijjakning mayin, nafis, kuychanlik sifatlari yaqqol ko`rinadi. Nechta tovush kamon harakatining bir tomoniga ijro etilishiga qarab, kamon ham teng taqsimlanishi kerak.



Legato bir torda va bir necha torlarda ijro etilishi mumkin, ya’ni tordan torga o`tish yo`li bilan. Bu shtrix bir necha torlarda ijro etilganida, navbatdagi torga o‘tishdan oldin kamonni o‘sha torga asta yaqinlashtiriladi. Shunda tovushlarning tekisligi, mayinligi va yumshoqligi saqlab qolinadi. O‘z o‘rnida bu ko‘nikmalarni o‘zlashtirish lozim.



Liga chizig‘i bilan birlashtirilgan notalarning ustiga yoki ostiga chiziqchalar qo‘yilgan bo‘lsa, unda shu chiziqchalar qo‘yilgan notalar kamonni pastga yo yuqoriga yo‘nalishi bo‘yicha yengil to‘xtatib, ajratib ijro etiladi. Bu shtrix ***portato*** (italyancha – ta’kidlash) deyiladi.



***Martele*** shtrixi aksent bilan boshlab, uzib chalinadi. Kamon shaxdam, tez tortiladi, keskin to'xtatiladi va o'zining cho'zimini teng yarmi hisobida pauza xosil qilinishi shart. Martele ▼ bunday belgi bilan ifodalanadi.




Martele kamonning hamma qismida, ko'proq yuqori qismida ijro etiladi.

***Markato*** aksent qo'yilgan detashe bo'lib, urg'u bilan boshlanadi, tugatilishida tovush pasayadi, lekin to'xtatilmaydi.



***Stakkato*** – ikki va undan ortiq tovushlarni kamonning bir tomonga yo'nalishi bo'yicha uzib-uzib, ammo tordan ko'tarmasdan ijro etish. Stakkato shtrixi asosan, ko'proq hollarda kamonni yuqoriga yo'nalishida qo'llanadi.



***Viotti*** shtrixi italyan kompozitori, skripkachi Viotti nomiga qo'yilgan. Avval birinchi tovush alohida, keyin kamonni har bir yo'nalishi bo'yicha ikkitadan notalar chalinadi. Bunda ikkitadan chalinadigan notalarning birinchisi kuchsiz, ikkinchisi kuchliroq, bo'rttirib ijro etiladi. Bu holat tovush cho'zimlarining sinkopa, ya'ni kuchli hissa kuchsiz hissaga o'tishidek tarzda ifodalanadi.



## SAKRATIB ChALINADIGAN ShTRIXLAR.

***Spikkato*** shtrixi tovushlar kamonning alohida, qisqa-qisqa pastga va yuqoriga sakratib amalga oshiriladigan harakatidan hosil bo'ladi. Spikkato o'ng qo'l panjasining (kistining) yengil harakati orqali ijro etiladi. Yozuvda notalarning ustiga nuqta bilan belgilanadi, ammo liga

chizig‘i bilan birlashtirilmaydi. Bu shtrixni ijro etishda kamonning ayni kerak joyidan foydalanish tavsiya etiladi. Kamonning boshlanish ya’ni ( kolodka) qismidan o‘rta qismiga (ammo teng o‘rta qismi emas) yaqin joyida  ijro etilsa shtrix o‘z  sifatini to‘liq ko‘rsatadi. Chunki shu joyda kamonning taranglik hususiyati ko‘proq.



***Stakkato Volant*** – uchar stakkato – huddi oddiy stakkatodek yoziladi. Ba’zan notalar ustiga yoki ostiga so‘z bilan stakkato volant deb yoziladi, agar yozilmagan holda asarning sur’ati, xarakteriga qarab ham qo‘llanadi. Oddiy stakkato kamonni tordan ko‘tarmay bir tomonga uzib-uzib ijro etilsa, uchar stakkato kamonni bir tomonga sakratib ijro etiladi. Demak, bir nechta spikkatolarni kamonning yuqoriga yo‘nalishi bo‘yicha sakratib  chalishdir. Tezkor sur’atli, sho‘xchan, zavqli asarlarda ko‘p qo‘llanadi.

A.Xachaturyan
Konsert, III qism



***Sautille*** – sotiye spikkato shtrixining bir turi. Bu shtrix o‘ng qo‘l panjasining pastga va yuqoriga tezkor harakati natijasida kamonning taranglik markazi orqali amalga oshiriladi. Ikkitalik spikkato deyilsa ham bo‘ladi, chunki bu shtrixda tovushlar juft beriladi. Xarakat tezligi va kamon tarangligi natijasida kamon tordan mexanik tarzda qaytib sakrashi hosil bo‘lishi sababli sotiye shtrixi ijrosida tezkorlik qulayroq amalga oshiriladi. Spikkato shtrixi ijrosida esa, kamon sozandaning o‘ng qo‘l panjasi yordamida har gal yengillik bilan torga mahsus harakat orqali tashlash va ko‘tarib olishni boshqarishi kerakligi sababli bir muncha murakkabroq. Yana bir tomoni sotiye shtrixida tovushlar ikkitadan ijro etilishi sababli chap qo‘l barmoqlari tezkorlik borasida unchalik qiyinchilikka duch kelmaydi, spikkato shtrixining murakkabligi esa chap qo‘l barmoqlari xar bir tovushni yakka, dona-dona, aniq, tezkor harakatda bajarishidadir. Shuning uchun tezkorlik borasida spikkato sotiye shtrixichalik  emas.

K.Bom
To‘xtovsiz harakat




***Rikoshet*** – rikoshet - kamonni o‘z og‘irligi bilan yuqoridan torga tashlanadi, hali inersiya kuchi tugamay turib davomiga bir nechta tovushlar bir tomonga sakratib chalinadi. Asosan bu shtrix kamonni pastga yo‘nalishi bo‘yicha qo‘llanadi. Ko‘proq tezkor, yengil, zavqli xarakterdagi asarlarda uchraydi.

A.Xachaturyan
Uzun-Dara




Yana shular bilan bir qatorda g‘ijjak ijrochiligida quyidagi shtrixlar ham qo‘llanadi.

***Tremolo*** shtrixi o‘ng qo‘l panjasining erkin, tezkor harakati orqali kamonni pastga va tepaga navbatma-navbat ijro etishdir. Tremolo asarlarning ba’zi lavhalarida va asosan jo‘r bo‘lish hollarida uchraydi.



Chap qo‘lda amalga oshiriladigan tremolo – o‘ng qo‘lda ijro etiladigan tremolodan farqli o‘laroq chap qo‘l barmoqlari orqali bajariladi. Bitta torda (ikki yonma-yon emas) ikki har xil balandlikdagi tovushlarni ketma-ket tezkorlik bilan ijro etish. Bu uslub ham ko‘proq jo‘r bo‘lish hollarida ishlatiladi. Aytaylik, orkestr ijrochiligida asarning asosiy kuy matnini qaysidir cholg‘ular guruhi ijro etyapti, uyg‘unlik hamohangligi (garmoniya) tovushlarini cho‘zib ushlab turilishi kabi hollarda qo‘llanadi.




Yana bir qiziq shtrix ***Coll legno*** deb ataladi. Bu shtrix kamonning yog‘och qismi bilan ijro etiladi. Yozuvda Col legno so‘zi bilan belgilanadi va o‘sha yerdan boshlab kamon yog‘ochi bilan chalinadi, to arco belgisi yozilgan joygacha.




## TORLARNI CHERTISH ORQALI TOVUSH HOSIL QILISH USLUBLARI

G‘ijjak ijrochiligida kamon orqali tovushlar hosil qilish bilan bir qatorda torlarni chertish orqali ham tovush hosil qilinadi. Torlar barmoqlar orqali chertib chalinishiga ***pizzicato*** deyiladi. Yozuvda pizz deb belgilangan joydan boshlab chertib chalinadi. Asardagi chertib chalinadigan parcha tugab, kamon bilan chalishga o‘tish kerak bo‘lsa, o‘sha joyga arco so‘zi yoziladi.




Yana shunga e’tibor berish kerakki, agar kuy matni bir ovozli bo‘lsa, pizzicato o‘ng qo‘lning ko‘rsatgich barmog‘i bilan chapdan o‘ngga, agar ikki va undan ortiq, ya’ni akkord yoki arpedjio tarzida bo‘lsa o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i (bashmaldog‘i) bilan tovushlarning pastdan yuqoriga joylashishi bo‘yicha o‘ngdan chapga chertib ijro etiladi.








Nota ustiga yoki ostiga + belgisi yozilgan bo‘lsa, unda pizzicato uslubi chap qo‘lning barmoqlari orqali chertib, yulib ijro etiladi.



## POZITSIYALAR

Avvalo cholg‘uni yaxshi bilish, uning barcha qismlari qanday imkoniyatlarga ega ekanligini puxta va mukammal o‘zlashtirish sozandaning eng asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. G‘ijjak dastasida (grifida) bajariladigan chap qo‘l harakatlarining hammasini nazariy va ilmiy jihatdan aniq, to‘g‘ri anglagan holda o‘rganish eng murakkab masalalardan biri. Albatta, bu o‘rinda pozitsiyalarning ahamiyati juda muhim va ular to‘g‘risida kengroq ma’lumotga ega bo‘lish maqsadga muvofiq. Pozitsiya chap qo‘l barmoqlarining cholg‘u dastasida joylashish holatlari bo‘lib, ular yozuvda I, II, III va hokazo rim raqamlari bilan belgilanadi. Pozitsiyalar birinchi barmoqni qo‘yilgan o‘rni bilan aniqlanadi. Masalan, lya torida birinchi barmoq si, ikkinchi do, uchinchi re, to‘rtinchi mi pardalariga to‘g‘ri keladi. Bu holat birinchi pozitsiya deyiladi. Agar ikkinchi barmoq o‘rnini birinchi barmoq ya’ni do pardasini birinchi barmoq egallasa, ikkinchi pozitsiya va shu tarzda uchinchi, to‘rtinchi va hokazo davom etadi. G‘ijjakda o‘n uchta, yarimpozitsiya bilan o‘n to‘rtta pozitsiya bor. Bularning hammasi, ayniqsa yuqorigilari qiyin va murakkab asarlarda juda muhim rol o‘ynaydi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, yuqoriga ko‘tarilgani sari g‘ijjak dastasining menzurasi torayib boradi va barmoqlar joylashishi zichlashadi. Unday hollarda pozitsiya birinchi bilan to‘rtinchi barmoqlar emas, balki birinchi bilan uchinchi (gohida ikkinchi) barmoqlar oralig‘i masofasida aniqlanadi. G‘ijjakning eng yuqori pardalari to‘rtinchi oktava sol, lya notalariga to‘g‘ri keladi. Ammo ba’zi hollarda bundanda yuqori pardalar qo‘llanadi.

G.I.Dinicu
To‘rg‘ay




Ochiq torlardan keyin yarim ton oralig‘ida birinchi pardani birinchi barmoq bilan ijro etishdagi barmoqlarning joylashish holati yarimpozitsiya deyiladi.



## POZITSIYALAR ALMASHUVI.

Chap qo‘l barmoqlarining bir pozitsiyadan boshqasiga o‘tishi pozitsiya almashuvi deyiladi. Pozitsiyalarga o‘tishga taaluqli qoidalarni puxta o‘zlashtirish kerak. Aslida chap qo‘l texnikasining asosiy maqsadi bir pozitsiyadan boshqasiga o‘tish texnikasidir. K. Davidov va K. Flesh rahbarliklarida qabul qilingan klassifikatsiya o‘tishlarni ko‘rinishlarga bo‘lishga asos qilib qo‘yilgan.[1] O‘tishlarning to‘rt ko‘rinishlari mavjud. Ularni A. Grigoryanning skripka uchun “Gammalar va arpedjiolar” qo‘llanmasida berilgani bo‘yicha aynan, o‘zgarishsiz, qat’iy ravishda o‘rganish shart va buni quyida e’tiboringizga havola etamiz. Sozandaning chap qo‘l texnikasi uchun bu kara jadvalini hech qachon esdan chiqarmaydigan qilib yodlagandek ahamiyatli bo‘lishi kerak.

## O‘TISHLARNING TO‘RT KO‘RINISHI

1) O‘tishlarning eng oddiy ko‘rinishlari ochiq tor sadolanib turgan vaqtda amalga oshiriladi. Qo‘l batamom silliqlik bilan bir pozitsiyadan boshqasiga joyini o‘zgartiradi.







2) Bitta va o‘sha barmoqning sirg‘alishi orqali amalga oshiriladigan o‘tishlar. Boshlanishida sirg‘alish silliq, sekin, oxirida bir muncha tezlashgan bo‘lishi kerak. O‘tish vaqtida sirg‘alayotgan barmoq erkin bo‘lishi zarur, o‘z bosimini bir muncha kuchsizlantirishi, shu bilan birga torni sezishni yo‘qotmasligi kerak.

[1] А. Григорян. “Гаммы и арпеджио”. М., 1977, 18-бет.




3) Pastki yotgan barmoqdan yuqorigi yotgan barmoqqa o‘tishlar (va orqaga)[2]; keyingi pozitsiyadagi birinchi nota yuqorigi yotgan barmoqlarning bittasi bilan olinadi. Dastlabki pozitsiyadagi oxirgi notani olayotgan barmoq tor ustida yangi pozitsiyagacha sirg‘aladi, yangi pozitsiyadagi notani olayotgan barmoq esa o‘z o‘rniga aniq tushadi. Sirg‘altirish silliq bo‘lishi kerak. O‘tish vaqtida sirg‘alayotgan barmoq tor ustida o‘z bosimini kuchsizlantiradi.




4) Yuqorigi yotgan barmoqdan pastki barmoqqa o‘tishda (va orqaga); keyingi pozitsiyadagi birinchi nota dastlabki pozitsiyaning oxirgi notasidan ko‘ra ancha pastki barmoq bilan olinadi.

Yuqoriga yo‘nalishda o‘tish uchun sirg‘altirish vaqtida bir barmoq boshqa barmoq bilan joy almashishi yuz beradi.

Pastga yo‘nalishda dastlabki barmoq sirg‘aladi, keyingi pozitsiya barmog‘i esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z o‘rniga aniq tushadi. Sirg‘altirish vaqtida dastlabki barmoq tor ustida o‘z bosimini kuchsizlantiradi.

[2] К. Флеш грифда пастки жойлашган бармоқларни –“пастки ётган”, юқоригиларини –“юқориги ётган”-деб атаган, бинобарин, 1- бармоқ 2-,3-, 4- бармоқларга нисбатан “пастки ётган” бармоқ ҳисобланади.




## APPLIKATURA

Applikatura so‘zi – (nemischa applicatur, lotincha applico – qo‘ymoq, bosmoq ma’nolarini anglatadi. Musiqa ijrochiligida cholg‘u dastasiga chap qo‘l barmoqlarini qo‘yish tartibidir. Applikaturani to‘g‘ri tanlash usullari sozandaga bir tomondan qulaylik, asarning texnik jihatdan qiyin parchalarini o‘zlashtirishda va ijro etishda yengillik yaratib bersa, yana bir tomondan o‘ng qo‘lning tordan torga o‘tavermay, yoki ortiqcha harakat qilmasdan o‘sha vaziyatdan erkin chiqishini ta’minlaydi. Qolaversa to‘g‘ri va qulay applikatura sozanda ijrosining ko‘rinishiga professional chiroy beradi.




Applikatura to‘g‘ri qo‘yilishining yana muhim tomonlari shundaki, aytaylik, yozuvda asarning boshlanish jumlalari (frazalari) yoki keyingi jumlalari uchun barmoqlar qo‘yilgan bo‘ladi, ammo hamma notalar ustiga emas. Bunday holatlarda barmoqlarning qo‘yilish navbatini qanday davom etishiga sozandada shubha yoki ikkilanish paydo bo‘ladi. Aslida bu vaziyat oddiy. Jumla boshlanishida aniqlab qo‘yilgan pozitsiyaga dahldor barmoqqa nisbatan keyingi barmoqlar ketma-ketligi davom etaveradi to barmoqlarning o‘zgarishi zarur vaziyat kelgunga qadar. Albatta bu vaziyatda barmoq o‘zgarishi yozib ko‘rsatiladi.



Qarang, agar uchinchi taktda do tovushiga ikkinchi barmoq yozilmaganida, oldingi ya’ni uchinchi pozitsiyadagi barmoqlar joylashishi davom etavergan bo‘lar edi. Shular bilan birga ikki xil, ba’zida uch xil variantlarda applikatura berish hollari ham kuzatiladi. Yozuvda notalar ustida birinchi, ostida ikkinchi, uchinchi variant qavs

ichida berilishi ham mumkin. Bunday vaziyatlarda sozanda ustki yoki pastki applikaturada ko‘rsatilgan barmoqlar ketma-ketligini o‘zi uchun qulay variantini tanlab, bir-biriga aralashtirmasdan bajarishi lozim.

## VIBRATSIYA

Kamonli cholg‘ularda tovush sadolanishini go‘zal, yoqimli, ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiladigan asosiy ko‘nikmalardan biri vibratsiyadir. G‘ijjak ijrochiligida ham vibratsiya asarning badiiyligini, kuychanligini, his-hayajonini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vibratsiya u yoki bu barmoq tor ustida biron bir pardani olgan xolda, uning ohanggini galma-gal biroz ko‘tarib yo pasaytirib o‘z joyida tebratishi natijasida amalga oshiriladi. Aytaylik lya torida birinchi oktava si notasini olib, masalan birinchi barmoq bilan asta-sekin g‘ijjak dastasini vertikal holati bo‘yicha tor ustida asosiy xarrak va yuqori xarrak tomonlari bo‘ylab barmoqni tebratib mashq qilishni boshlaymiz. O‘rganish sekin, shoshmasdan, vazmin harakatda bo‘lishi kerak. Mashqlarni sadolanayotgan ohanglarni eshitib, nazorat qilgan holda asta, muloyimlik bilan davom ettiramiz. Avval boshlang‘ich pozitsiyalarda, so‘ng III-, IV- va yuqori pozitsiyalarda navbatma-navbat o‘rganiladi. Chap qo‘l barmoqlarining har biri vibratsiya harakatini bajaradi. Bu borada yuqorida aytilganidek shoshmasdan, vaqtidan oldin tezlashtirmasdan o‘rganish tavsiya etiladi. Aks holda yoqimsiz, titroqi ovozda tebratish hosil bo‘lib, salbiy oqibatlarini ko‘rsatishi mumkin. Mashqlar davomida barmoqlar ko‘nikma hosil qilganidan keyin, vibratsiya harakatining tezligi ortadi. Asarlar ijrosida vibratsiya kuyning sur’ati, hayajoni, xarakteriga qarab qo‘llanadi. Vibratsiya ayniqsa kuychan, kantilena xarakteridagi asarlarda muhim o‘rin tutadi. Faraz qiling, biror-bir alla, so‘z siz qo‘shiq yoki asarning kuychan qismi ijrosida vibratsiya ko‘nikmasi qo‘llanmasa, u holda kuy beta’sir, yoqimsiz, va jonsiz xarakterda sadolanadi. Bu albatta hech qaysi tinglovchiga yoqmaydi. Shuning uchun vibratsiya kuyning qoni va joni hisoblanadi. Kuyni yoqimli sadolantirib, eshituvchiga ma’qul bo‘lishida vibratsiyaning muhim o‘rnini doimo yodda tutish lozim.

## FLAJOLETLAR

Flajolet - (fransuzcha - flajeolet) – naycha, puflama cholg‘uning nomi[3]. G‘ijjak ijrochiligida bunday yumshoq, mayin, ingichka tovushlar hosil qilish usuli flajoleto deyiladi. Flajolet chap qo‘l barmoqlari torning muayyan joylariga yengil tegishi natijasida amalga oshiriladi. Bu torning o‘zaro bir - biriga teng bo‘lgan qismlarga bo‘linish nuqtalari 1/2, 1/3, 1/4 va hokazo joylarida hosil bo‘ladi. Flajoletlar torning bo‘linishiga qarab oktavali 1/2, kvintali 1/3, kvartali 1/4 va hokazo bo‘lishi mumkin. Flajoletlar ikki xil, tabiiy va sun’iy bo‘ladi.

## TABIIY FLAJOLETLAR

Tabiiy flajoletlar faqat ochiq torlarning muayyan joylariga (u yoki bu nuqtalariga) chap qo‘l barmoqlarini sal, yengil tegish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Yozuvda notalar to‘rtburchak, (rombik) ichi bo‘yalmagan holda, yoki ustiga qo‘yilgan (o) mana bunday doiracha belgisi bilan ifodalanadi. Oktavali flajolet chap qo‘l barmog‘ining ochiq tor o‘rtasiga ya’ni 1/2 qismga teng uzunlik nuqtasiga sal, yengil tegishi bilan hosil bo‘ladi.




Kvartali flajoletlar torning 1/4 yoki 3/4 qismlariga teng uzunlik nuqtalariga barmoqni sal, yengil tegishi orqali hosil qilinadi. Natijada ochiq torning sadolanishiga nisbatan ikki oktava yuqori tovush hosil qilinadi.

[3] М. Тошмухамедов “Ғижжак дарслиги”.Т., Ўқитувчи, 1995, 13-бет.




Kvintali flajoletlar torning 1/3 yoki 2/3 qismlariga teng uzunlik nuqtalariga barmoqni sal tegishi orqali amalga oshiriladi. Kvintali flajoletlar ochiq torga nisbatan bir oktava yuqori kvinta tovushini beradi.




Garchan juda kam qo‘llansada, tersiyali va sekstali flajoletlar ham mavjud. Tersiyali flajoletlar ochiq torning uchta joyida 1/6, 2/3va 5/6 qismlarining teng uzunlik nuqtalariga barmoqni sal tegishi natijasida hosil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda ochiq tordan boshlab katta tersiya, (faqat katta tersiya) keyingi oktavadan yuqoriga katta tersiya, yana keyingi oktavadan yuqoriga katta tersiya masofalari joylashgan nuqtalarda amalga oshiriladi. Natijada ochiq torga nisbatan ikki oktava yuqori katta tersiya, keyingi oktavaga nisbatan bir oktava yuqori katta tersiya, undan keyingi oktavaga nisbatan katta tersiya tovushlari hosil bo‘ladi.




Sekstali flajoletlar ochiq torga nisbatan katta seksta (faqat katta seksta) oralig‘i masofasida barmoqni torga sal, yengil tegishi orqali amalga oshiriladi va ochiq torga nisbatan ikki oktava yuqori katta tersiya tovushini beradi.




## SUN’IY FLAJOLETLAR

Ikkita barmoq ishtirokida hosil qilinadigan flajoletlar sun’iy flajoletlar deyiladi. Bu flajoletlar birinchi barmoq tor ustiga mahkam qo‘yilishi, tersiya, kvarta, kvinta, seksta oralig‘i masofasida uchinchi yoki to‘rtinchi barmoq tor ustiga sal, yengil tegishi orqali hosil qilinadi. Yozuvda esa sun’iy flajoletlar qo‘sh notalar bilan ifodalanadi. Pastki nota oddiy, yuqorigisi kichik rombik (ichi bo‘yalmagan) holda yoziladi.

Kvarta orqali flajolet hosil qilishda birinchi barmoq torga mahkam, to‘liq bosiladi, to‘rtinchi barmoq esa kvarta oralig‘i masofasida tor ustiga yengil qo‘yiladi. Natijada birinchi barmoq olayotgan nota ikki oktava baland sadolanadi.




Kvinta orqali flajolet ijrosida ham birinchi va to‘rtinchi barmoqlar shunday xarakat qiladi,  faqat notalar orasi kvinta oralig‘i masofasida bajariladi. Birinchi barmoq olayotgan nota bir oktava yuqori kvinta tovushini beradi.




Yuqorida aytib o‘tilganidek, garchan juda ham kam qo‘llansada, tersiyali va sekstali flajoletlar juda murakkab, texnik jihatdan katta mahorat talab qiladigan asarlarda uchraydi. Tersiyali flajoletlarni sun’iy ravishda hosil qilinishida odatdagidek birinchi barmoq tor ustiga mahkam qo‘yiladi, uchinchi barmoq katta tersiya oralig‘i masofasida tor ustiga sal, yengil tekkiziladi. Shunda birinchi barmoq olayotgan nota ikki oktava yuqori katta tersiya tovushini hosil qiladi.

Masalan, re torida




Shuni unutmaslik kerakki, tersiyali flajolet ijrosida ishtirok etayotgan ikkala notaning oralig‘ masofasi doimo katta tersiyadan tashkil topgan bo‘ladi.

Sekstali flajoletlar ijrosida ham birinchi barmoq torga mahkam bosiladi, to‘rtinchi barmoq esa katta seksta oralig‘i masofasida tor ustiga sal, yengil qo‘yiladi. Bu holatda asosiy ya’ni birinchi barmoq olayotgan nota ikki oktava yuqori katta tersiya tovushini beradi. Bunday flajoletlarni ijro etishni qiyin tomoni shundaki, ikkita barmoq oralig‘i keng, (katta seksta) hajmida ekanligidadir. Yuqoriroq pozitsiyalarda, ya’ni III, IV pozitsiyalardan boshlab dasta menzurasi toraygan sari, barmoqlar harakati qulaylashadi. Sekstali flajoletlar ijrosida ishtirok

etayotgan ikkala notaning oralig‘i doimo katta sekstadan tashkil topgan bo‘lishi kerak.




## MELIZMLAR

Melizmlar kuylarning bezaklari hisoblanadi. Ularga forshlag va uning turlari, mordent, gruppetto, trel kabilar kiradi. Bulardan mordent va gruppetto haqida to‘xtalsak.

## MORDENT

Mordent asosiy, yordamchi, yana asosiy tovushlardan iborat bo‘lib, asosiy nota cho‘zimi hisobiga ijro etiladi. U ~ bunday belgi bilan ifodalanadi va nota ustiga yoziladi. Mordent ikki turga bo‘linadi, oddiy va chiziq tortilgan. Oddiy mordentning ijrosi yuqori yordamchi tovush ishtirokida, chiziq tortilgan mordentning ijrosi pastki yordamchi tovush ishtirokida bo‘ladi. Agar mordent belgisi ustiga yoki ostiga alteratsiya belgilari qo‘yilgan bo‘lsa, u holda yordamchi tovushlarga taaluqli bo‘ladi.



## GRUPPETTO

Gruppetto[4] yuqorigi yordamchi, asosiy, pastki yordamchi va yana asosiy, ya'ni to'rt tovushdan tuziladi. Bu gruppetto bevosita gruppetto deyiladi va bunday ∾ belgi bilan ifodalanadi. Gruppetto bu ∽ belgi bilan ifodalansa, u holda pastki yordamchi tovush, asosiy, yuqorigi va yana asosiy tovushlardan tuzilgan bo'lib, qaratilgan gruppetto deb ataladi. Yozuvda gruppetto belgisi nota ustiga yoki notadan keyin qo'yiladi. Agar gruppetto belgisi nota ustiga qo'yilgan bo'lsa, u holda gruppetto tovush cho'zimi avvalida ijro etilib, so'ng asosiy tovush cho'zimliligi oxirigacha sadolanadi.

Bevosita gruppetto — Qaratilgan gruppetto

Yozilishi — Ijrosi — Yozilishi — Ijrosi



Gruppetto belgisi notadan keyin qo'yilgan holda esa, gruppetto shu nota cho'zimining ikkinchi yarimi hisobiga ijro etiladi.

Bevosita gruppetto — Qaratilgan gruppetto

Yozilishi — Ijrosi — Yozilishi — Ijrosi



Gruppetto belgisi ustiga yoki ostiga alteratsiya belgisi qo'yilsa, u holda alteratsiya belgisi yordamchi tovushga tegishli bo'lib, gruppetto belgisining tepasidagi yuqorigi yordamchi tovushga, ostidagi pastki yordamchi tovushga taaluqli bo'ladi.




---

[4] А. Дадамухамедов."Рубоб прима дарслиги", Т., "Мусиқа",2004, 47-бет.

## GLISSANDO

Ma’lum tovushdan boshqa tovushgacha u yoki bu barmoqni tordan ko‘tarmay, uzmasdan, sirg‘altirib ijro etish uslubi glissando deyiladi. Glissando qaysi tovushdan boshlab qaysi tovushgacha ijro etilishini yozuvda o‘sha notalar o‘rtasiga birlashtiruvchi to‘lqinli chiziq yoki qisqa gliss so‘zi, yana to‘g‘ri chiziq bilan birlashtirib ham ifodalanadi.




Glissando o‘ziga hos bezak bo‘lib, kuyni ta’sirchanligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Turli millatlarning musiqa ijrochiligida keng qo‘llanadi. Venger, ispan, arab, hind, uyg‘ur, o‘zbek, turk, sigan, ozarbayjon, tojik, turkman va boshqa ko‘pgina xalqlarning milliy kuylarida asosiy bezak vositalaridan hisoblanadi. Glissando kuyning sur’ati, ritmi va xarakteriga monand holda qo‘llanadi. Glissando qo‘sh notalar shaklida ham uchraydi. Bunday vaziyatlarda ikkala barmoqning sirg‘alishi baravar amalga oshiriladi.

## PORTAMENTO

Portamento sekinlashtirilgan glissandodir. Bir tovushdan boshqasiga sekin, tayyorgarlik bilan o‘tiladi. Bu o‘tish huddi pozitsiya almashuvlarining ko‘rinishlariga o‘xshaydi. Masalan, bir va o‘sha barmoq orqali pozitsiyaga o‘tish ko‘rinishi yoki dastlabki pozitsiyadagi oxirgi notani olayotgan barmoq tor ustida sirg‘alib yangi pozitsiyadagi barmoqni o‘z o‘rniga tushishini ta’minlaganidek ko‘rinishlar nazarda tutilyapti. Faqat bu xarakatlar biroz sirg‘altirib (ammo chuqur emas) glissando harakatini bajargan holda, yetib boriladigan nota joylashgan pozitsiyaga sirg‘alayotgan barmoqni tayyorlab olib borish yo‘li bilan bajariladi.



# GAMMALAR

Gammalar va arpedjiolar ijrochilik texnikasini o‘zlashtirishda asosiy, shu bilan birga juda muhim o‘rin tutadi. Ijro mahoratining takomillashib borishi uchun sozanda muntazam ravishda gammalar va arpedjiolar ustida ishlashi kerak.

Bu mashg‘ulotlar chap qo‘l barmoqlarining cholg‘u dastasida yengil harakatlanishini, tezkorligini qoidaviy tarzda rivojlanib borishida va o‘ng qo‘l harakatlari orqali turli shtrixlarni yaxshi o‘zlashtirishda albatta o‘z samarasini beradi. Sozanda gammalar va arpedjiolar ustida ishlar ekan, avvalo, tovush hosil qilish sifatini, ohang tozaligini nazorat qilib, uni borgan sari takomillashishiga erishmog‘i lozim.

Shu bilan bir qatorda metroritmik aniqlikka erishish uchun o‘zi ham turli ritmik variantlar tanlab mashqlar bajarishi tavsiya etiladi. Yana, gammalarni o‘rganishda chap qo‘l barmoqlari vibratsiya (tebratish) harakatini bajarishi kerak emas. G‘ijjak dastasida aytaylik, biron bir barmoq joyini topmadi, u holatda barmoqning vibratsiya harakati bunga yordam berishi mumkin.

Asosiy maqsad esa vibratsiya harakatini qo‘llamasdan ohang (intonatsiya) tozaligini to‘g‘ri bajara olish va g‘ijjak dastasida barmoqlar joyini aniq topa olishidadir. Albatta, bu jarayonda sozanda har bir tovushni eshitib, nazorat qilib borishi shart. Shu sababdan vibratsiya ko‘nikmasini qo‘llamasdan ohang tozaligiga erishish talab qilinadi.

## II BOB. CHOLG`U IJROCHILIGI UCHUNXALQ KUYLARIDAN NAMUNALAR

## 3.1. “Olmani otdim” O`zbek xalq kuyi

Allegretto




f
mf
f
mf

# Bilakuzuk

## O'zbek xalq kuyi

M.M. = 126



## Gulyoraxon

Allegretto **O'zbek xalq kuyi**



# Farg'onacha

**O'zbek xalq kuyi**

Allegro moderato




f
mf

# Mirzadavlat

**O'zbek xalq kuyi**

Allegretto




f

# Qoradali

**Ozbek xalq kuyi**

**Allegretto**




mf
sf

# Rajabiy

**O'zbek xalq kuyi**

**Vazmin**




1.
2.
f
1.
2.

## III BOB. ANSAMBL IJROCHILIGI UCHUN MAQOM KUYLARIDAN NAMUNALAR.

## 4.1. "Nasri segoh" O`zbek xalq kuyi.




1.
2.

# Ufori nasri segoh

**O'zbek xalq kuyi**

Tez, quvnoq





## Aliqambar

Allegro moderat

**O'zbek xalq kuyi**





# Rohat

Tezroq, yengil **O`zbek xalq kuyi**





# Abdurahmonbegi

Allegretto

**O'zbek xalq kuyi** Orif Xakimov notaga olgan




mp
f
mf
f
mp
mf
rit.

## Munojot

Salmoqli, kuychan **O'zbek xalq kuyi**




p
p
p



* r
p
dim.
1.
2.
rit. .

# Munojot ufori

Sho'xchan, ildam

**O'zbek xalq kuyi**



## Munojot mo'g'ulchasi

O'rtacha tez, salmoqli

**O'zbek xalq kuyi**



## Munojot qashqarchasi

**O'zbek xalq kuyi**

Salmoqli, o'ynoqi



# Yovvoyi chorgoh

**O'zbek xalq kuyi**

Shoshilmasdan




mf
f


Boshlang'ich temp




Allegretto



rit.

## BADIIY QISIM

## IV BOB. MDH VA CHET EL BASTAKORLARNING ASARLARI.

## 5.1. “Elegiya” F. Amiov

G`ijjak matni Qaxramon Nazarov tahriri ostida.

# ELEGIYA

**F.Amirov**

G‘ijjak matni Qahramon Nazirov
tahriri ostida




rit.
poco a poco cresc. e accel.
f poco a poco cresc. e accel.
ff
ff
sul A
sul G
rit.
mf
mp
3
Tempo I
sul G
p con dolore
8va




## BALLADA

**F.Amirov**

G‘ijjak matni Qahramon Nazirov
tahriri ostida




gliss.
sul G
1
Allegretto grazioso


p
mf
8va
f
mf cresc.
ff
tr


2
3
Tempo I (Andantino con spirito)
mp espress.


gliss.
sul G
Tempo I
8vb

# SEVGI RAQSI

**F.Amirov**

G‘ijjak matni Qahramon Nazirov tahriri ostida




cresc.
cresc.
2
f
f
8va
dolce
f
mp
mf
f
f
mf


3
8va
f espress.
(8)
(8)
tr
cresc.
cresc.


4
8va
ff
f
(8)
tr
8vb


col legno
(8)
pizz.
mf
8va
ff
sf



**Oskar Riding**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

Oskar Riding Germanyalik sikripkachi, forto pianist va kompozitor 1840- yilda SHtettinda tug`ulgan u Berlendagi Yangi musiqa akadimyada, keyin Lepsig nomidagi konservatoryada o’qigan Tugatgandan so`ng Venaga kelgan. 1871-yilda Gans Rixter Budapesht operasiga orkestir konsertmeyster bo’lib ishlashga taklif etadi. Kompozitor bu yerda 1904-yilgacha ishladi. U 1918-yili Selida vafot etgan. Asosan Riding sikripka uchun asarlar yozgan va skripkada fortopiano yoki orkestrga jo’r bo`lgan Oskar Riding ko’plab mamlakatlarda konsertlar bergan.

**Konsert nima?** Konsert lotincha–musobaqalashaman, oldindan e’lon qilingan dastur asosida san’atkorlarning maxsus joyda chiqishi; musiqa, adabiy, estrada asarlariniommaviy ijro etish.Konsert dastlab mumtoz musiqa asarlarini ijro etish hamda tinglanishi uchun tashkil etilgan jamoa tadbiri sifatida namoyon bo’lgan.

Birinchi konsertlar 1672-78-yillarda London skripkachi J. Banister tomonidan uyushtirilgan. 19-asrda esa konsertlarni turli musiqa jamiyatlari, filarmoniyapar tashkil etib rivoj topgan. Hozirda konsert atamasi badiiy mazmuniga hamda namoyon bo’lish joyiga qarab adabiy, raqs, kino, estrada, radio konsertlari va boshqa ma’nolarda talqin etiladi.

# Концерт

О. Ридинг




20
mf
mf
25
f
f
p
p
31
f risoloto
mf
37
mf
mf
42
f
f


47
mf
mf
52
f
55
f
Ped.
58
61
mf
mf
p


64
69
f
mf
74
f
79
82

# 41. Концерт

О РИДИНГ




1


mf espress


rit
f
dim
mf
dim
a tempo
mf
f
p
mf
mf
f
mf
p
mf
p


4


rit
Meno mosso (немного медленнее)
mf espress
f
p
f
mf
mf
p
3


rit
Tempo I (Temp I)





**Frans Yozef Gaydn**

## Asar kompozitori va uning ijodi:

Asar kompozitori Frans Yozef Gaydn 1732-yili 31-martda Avstriyaning Rorau qishlog'ida tavallud topgan. Avstriya buyuk kompozitori, Kaplmaestri. Klassik davrning eng muhim musiqachilaridan biri bo'lgan. Tegishli janjlarda qo'shgan katta hissasi tufayli "Simfoniya otasi", "Torli kvartet otasi" degan epitetlarga sazovor bo'lgan. Pianino triosi va sonata shakllarini rivojlantirgan bastakorlardan biridir. Vena klassik maktabining yirik vakili, 24 ta opera, 100 dan ortiq simfoniya, turli cholg'ular uchun 35 konsert, diniy cantata va messalar, fortepiano sonatolari, turli tarkibdagi kamer ansambllari (shu jumladan, 83 torli kvartet) va boshqa asarlarning muallifidir." Dunyoning yaratilishi" (1798) va "Yil fasllari" (1801) oratoriyalari hamda 1796-1802-yillarda yaratilgan messalar Gaydn ijodining cho'qqisidir. Ayrim asarlari ("Kutilmagan uchrashuv " operasi, 1775)da Sharq mavzularini kzotik tarzda ifoda etgan. Gaydn o'z ijodida avstriya, venger, xorvat, italyan va boshqa xalqlar qo'shiqlari va raqs kuylaridan keng foydalangan. Asarlariga yorqin va jozibali obrazlarning xilma-xilligi, musiqa tilining soddaligi bilan birga g'oyaviy butunlik, musiqa rivoji usullarining mukammalligi xos. Gaydn ijodi bilan simfoniya, kvartet kabi musiqa janrlari, simfonizm musiqa uslubining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. 20-asrda Kyolnda Gaydn instituti tashkil etilgan.

# 86 АНДАНТЕ

Й.Гайдн

**Andante (Не спеша)**




f
pp
p
pp



**Iogan Adolf Xasse**

## Asar kompozitori va uning ijodi:

Iogan Adolf xasse 1699 yil 25 martda Gamburg yaqinidagi bergedorfda tug'ilgan. U nemis kompozitori, musiqachi pedagog bo'lgan.

U 60 ga yaqin operalar, bir qancha oratoriyalar, ko'plab serinadalar va damli cholg'ular uchun asarlar yozgan.

Shuningdek kompozitor kamer ansambil uchun asarlar yozgan, bulardan 80 ga yaqin fleyta uchun konsertlar, sanata va simfoniyalar yozgan. U 1783 yil 16- dekabrda Venitsiyada vafot etgan.

# БУРРЕ И МЕНУЭТ

БУРРЕ

ХАССЕ





**Lui Marshan**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

**Lui Marshan:** 1669- yil 2- fevralda Leonda tavallud topgan. U organist, kompazitor, musiqa o’qituvchisi, cholg’u asboblarida organ chalgan. U opera janrida ijod qilganligi aniq faktlardan biri.

# МЕНУЭТА

Л.МАРШАН

**В. темпу менуэта**



# 26.ПЕРЕПЕЛОЧКА

Обработка А.Комаровского

Allegretto(Оживленно)



2






**M.Glenka**

## Asar kompozitori va uning ijodi:

1804- yilda 20 – maydan Simalinskada tug'ilgan. 6 yoshigacha buvisini qulida tarbiya olgan. 10- yoshida ota- onasi uni fartapiano va skiripka chalishga kursiga quyadi.1 chi o'qituvchisi rus Petirburglik bo'lgan 1817 yilda ota onasi uni Sam-Peritburgga pedagogika fakultetiga o'qishga qo'yadi.

U"Ruslan va Ludmila" operalari, simfonik asarlari, dramatik

spektakilga musiqa, fortepiao asarlari, romas va qo`shiqlari tashkil etadi.

Kompazitoring eng katta xizmati shundan iboratki u o`z ijodi bilan rus klassik kompazitorlik maktabining tarixiy yo`nalishini belgilab berdi va ayni paytda, jahon klassik musiqasi rivojiga o`z hissasini qo`shdi.

## ПОЛКА

М.ГЛЕНКА





**Mixail Kleofas Oginskiy**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

1765-yil 25-sentabrda Varshava yaqinida Guzuv shaharchasida tug'ulgan.

U kompozitor, diplomat sifatida o'z zamonasida tanilgan. Oginskiy asosan opera janrida ijod qilgan.

U yoshligidan Osib Kozlovskiyda fortepiano chalishdan dars oladi, Jornovikidan esa skripka chalishni o'rganadi.

Keyinchalik esa u hayotini musiqaga bag'ishlaydi va boshqa xil asboblarniyam chalishni o'rganadi.

U opera polonez, mazurka va qo'shiqlar yaratadi. Oginskiy 1833-yil 15-oktabrda 68 yoshida Florensiyada vafot etadi.

# ПОЛОНЕЗ

Переложение Т.Ямпольского

М.Огинский

**Cantabiele e dolce [ Певуче и нежно ]**




mf



"Конец"
mf
mf
arco
mf


brillanie
f
molto ritmico


5
pizz
*f*
arco
*f*



**(1881-1945)**

**Bela Bartok**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

**Bela Bartok** –Vengir kompazitori, pianist va musiqashunos-foliklorist.

Bartok 1881-yil 25-martda Banatyan Nagyszentmiklos shahrida Vengriya Qirolligida, Avstriya-engriyada to'g'ilgan.

U venger kompozitori, pioninochi, etnomusiqashunos, pedagog.

Bartokning "Ko'k soqol gersogning qasri" (1911) operasi va "Yog'och shahzoda" (1914-16), "Ajoyib mandarin" (1919) baletlari, raqs kuylari, simfonik asarlari, konsert, kvartet, sonatalari, fortepiano uchun 85 pyesadan iborat "Bolalarga", 153 pyesadan iborat "Mikrokosmos" to'plamlari mashhur.

# 27.ПЬЕСА

Б.БАРТОК

**Molto sostenuto(Очень сдержанно**





**Jan Batis Bekeerle**

## Asar kompozitori va uning ijodi:

**Jan Batis Bekeerle** 1821 yil 29 noyabrda Gepeviller shahrida dunyoga kelgan.

U bir qancha kasblarda faoliyat olib brogan bulib, folklorist, kompozitor, musiqachi, opera janrlariga ham, ko’plab hissasini qo’shgan.

# СТАРИННАЯ ФРАНЦУЗСКАЯ ПЕСЕНКА

Обработка Ж. Векерлена

**Andantino**




29
mp dolce
mp
37
pp
pp
42
1.
2.



**Lyudvig Van Betxoven**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

**Betxoven** nemis kompozitori, pianinochi va dirijyor. Vena klassik maktabining vakili. U 1770-yil 17-dekabrda Germaniyaning Bonn shahrida tavallud topgan.

1792-yilda Venaga ko'chgan va tez orada o'zining erkin va ta'sirchan, yangi ijro usuli bilan istedodli pianinochi sifatida tanilgan. Venada (1795-1800) yaratgan fortepiano sonatasi, kvartetlari, 1-simfoniyasi, "Prometeyning yaratmalari'' baletidayoq Betxovenga xos ijodiy uslub ko'zga tashlandi. 27 yoshida qulog'i og'irlashib, keyinchalik butunlay kar bo'lib qolsada, ichki o'quv, his-tuyg'u bilan anchagina asarlar yaratdi, dirijyorlik qildi. Betxovenning ijodi, ayniqsa 1801- 1812-yillarda kamol topdi. Qahramonlik va demokratizm ruhi bilan yug'rilgan 3-"Qahramonnoma", 5-simfoniyalari, "Fidelio" operasi, I.Gyotening "Egmont" fojiasiga yozgan musiqasi, skripkava fortepiano uchun "Kreyserov" sonatasi mashhur.

Chuqur fojiaviylik va adolat tantanasiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan 9-simfoniyasi Betxoven ijodining cho'qqisidir. So'nggi asarlari (28-32 fortepiano sonatalari, 12-16 kvartetlari, bagatellari) da kompozitorning yangi ifoda vositalari topishga intilishi seziladi.

# СУРОК

Л.БЕТХОВЕН



# 44. СОНАТИНА

**Moderato (Умеренно)**

Л.Бетховен




B
p
C
mf



**Frans Shubert**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

**Frans Shubert** 1797-yilda Vena yaqinidagi Lixtentalda dunyoga kelgan. Otasi maktab o’qituvchisi bo’lib, dehqon oilasidan kelib chiqqan edi. Onasi violonchel, akalari turli xil musiqa cholg’ulari chalishgan.

Yosh Fransdagi musiqiy qobilyatni sezgan otasi unga skripka va fortepiano chalishni o’rgatishdi. Tez orada bolakay alt partiyalari ijrosi bilan oilaviy torli asboblar kvartetida ishtirok eta boshladi. Uning go’zal va yoqimli tovushi ham bor edi. U cherkov xoriga qatnashar, u yerda murakkab yakka xor partiyalarni ijro etardi. U 11 yoshga to’lganda uni konviktcherkov qo’shiqchilarini tayyorlash maktabiga berishdi.

Uning dastlabki asarlari fortepiano uchun fantaziya, bir qator qo’shiqlar bo’lgan. 1813-yil 28-oktyabrda u o’zining Birinchi simfoniyasi Re-majorni tugatadi. 1815-yilning o’zidayoq Shubert 144 qo’shiq, 4 oper, 2 simfoniya, 2 fortepiano sonatasi, torli kvartet yaratadi.

Shubertning “Tugallanmagan simfoniya”si (1822) yangi turdagi lirik-dramatik simfoniya bo’lib, to’liq tugallangan asardir. 16 qo’shiqdan tashkil topgan birinchi to’plam “Urchuq yonidagi Gretxen”, “Dala atirguli”, “O’rmon shohi”, “Podachining shikoyati” kabi mukammal qo’shiqlarni o’z ichiga olgan. Shubertning birorta ham operasi sahnalashtirish uchun qabul qilinmagan, vaholanki u “Shaytonning

quvnoq uyi" (1814), "Alfons va Estrella" (1822) operalarini, "Fernando"(1815), "Egzaklar"(1819) zingshpillarini yozgan edi. O'limidan bir yil oldin "Qishki ko'l to'plami"ni yaratgan. 1828-yilda do'stlarining say- harakati bilan Shubertning hayotligida uningo'z asarlaridan iborat bo'lgan yagona konsert tashkil etiladi. Shubert 1828-yilning 19-noyabrida tif kasalidan vafot etadi

## 78. ЭКОСЕЗ

Ф.ШУБЕРТ

**Vivo (живо)**



# ВАЛЬС

Ф.ШУБЕРТ





**(1786-1826)**

**Karl Mariya Fridrix Ernist fon Veber**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

Karl Mariya Fridrix Ernist fon Veber 1786-yil 18-noyabrda Eyutinda to’g’ilgan.

U oilada 9- farzand bulgan. Otasi Frans Anton fon Veber talantli bo’lgan. Uning otasining talanti Karlga ham o’tgan. U yoshligidan opera yozishga qiziqqan.

1799-yilda Saksonyaga kuchib keladi, bir yil o’tib uning yoshligida yozilgan birinchi operasi “Lisnaya devushka” operasining premyerasi bulib o’tadi.1801-yilning noyabrida Zalsburgga ko’chib ketadi.

Usha vaqtlarda u Mexayela Gaydindan taxsil oladi. U kam vaqt o’tib 3-operasi “Petr shimol va uning qo’shnilari”deb nomlangan 3-operasini odamlarga taqdim etadi.

# 4. ХОР ОХОТНИКОВ

К.М.ВЕБЕР

(1786-1826)





**Volfrag Amadey Motsart.**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

Avstraliyalik bastakor va musiqachi Volfrag Amadey Motsart mashhur klassik bastakordir. Motsart jahon musiqa madaniyati rivojiga katta tasir ko`rsatgan. Zamondoshlarining aytishicha u noyob qobiliyat egasidir va musiqani eshita olish, esda saqlay olish qobiliyatiga ega bo`lgan. Eng yirik musiqa ustalari o`rtasida Motsart o`z ijodining serqatlamligi va kengligi bilan ajralib turadi. Motsart deyarli barcha musiqa janrlariga murojaat etib, 600 ga yaqin asar yaratgan.

Musiqa tarixida go`zallik va mukammal garmoniya timsoli sifatida o`z nomini qoldirgan. Motsart operaning yangi turlarini yaratgan. ,,Figaroning uylanishi" opera- komediyasi (1786), ,,Don Juan"opera-dramasi (1787), ,,Sehirli fleyta" milliy opera –ertagi (1791) (jami 17 ta) jahon musiqali teatri xazinasining durdonalariga aylangan. Bulardan ,,Zaida" (1780), ,,Haramdan olib qochish" (1782), ,,Qohira g`ozi" (1783) kabi operalarida sharq mavzulariga murojaat qilgan.

# 72. ПЕСНЯ ПАСТУШКА

В. МОТСАРТ

**Allegretto (Довольно скоро)**





**Nataliya Baklanova Vladimirovna**

**Asar kompozitori va uning ijodi:**

Asar kompozitori Nataliya Baklanova Vladimirovna 1897-yilda Rossiya davlatining Moskva shahrida tavallud topgan.

O'zining o'zgacha uslubdagi ijodi bilan kompozitor nafaqat Rossiya balki butun jahonda o'chmas iz qoldirdi.

Nataliya Baklanova 1980-yida hayotdan ko'z yumgan. Umrining so'nggi kunlarida ham musiqa olamini bir zum bo'lsada tark etmadi.

# РОМАНС

**Неторопливо**

Н.Бакланова



## Cholg`u ijrochiligi fanidan test savollari.

**1. O'zbek musiqasida cholg'ular necha xilda sozlanadi?**

A) *Uch xilda

B) Ikki xilda

C) To'rt xilda

D) Bir xil

**2. O'zbek musiqa cholg'uarining sozlanishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A)* Tanavor sozi, Munajot sozi, Qo'sh soz

B) Dilxiroj sozi, lazgi sozi, Qo'shsoz

C) Kvarta sozi, Kvinta sozi, Unison sozi

D) Garmonik soz, Melodik soz, Tabiiy soz

**3. Shashmaqom necha qismdan iborat?**

A) 5- ta

B) 7- ta

C) 12- ta

D) *6- ta

**4. O'zbek milliy cholg'ulari qaysilari?**

A) Akkordion.

B) Fortepiano

C) *Tanbur, dutor

D) Ud, qonun

**5. O’zbek milliy cholgu asboblari guruhi qaysi qatorda to’g’ri keltirilgan?**

A) *Torli, damli, urma cholg’ulari

B) Noxunli, kamonli, puflama cholg’ulari

C) Tirnama, torli kamonli, mushtukli cholg’ular

D) Mis torli, ichak torli, mis damli, yog’och urma cholg’ulari

**6. Toshkentda o’zbek xalq cholg’u asboblari nechanchi yil tuzilgan?**

A) *1935 yil

B) 1924 yil

C) 1950 yil

D) 1955 yil

**7. Moskvada o’zbek san’ati va adabiyoti dekadasi nechanchi yil o’tkazilgan?**

A) *1937 yil

B) 1930 yil

C) 1945 yil

D) 1951 yil

**8.Shu dekadada o’zbek xalq cholg’u asboblari ansambli ishtirok etdi, Shu ansamblga kim raxbarlik qilgan?**

A) *T.Jalilov

B) Yu.Rajabiy

C) M.Mirzaev

D) M.Burxonov

**9.“Orazibon” kuyi qaysi voha musiqiy yo’nalishiga mansub?**

A) Qoraqalpoq

B) Farg’ona-Toshkent

C) Samarqand, Buxoro

D) Xorazm

**10. Shashmaqom qayerda paydo bo’lgan?**

A) Xorazm

B) Samarqand

C) *Buxoro

D) Termiz

**11. Suvoralar qaysi yo’nalishga mansub?**

A) Buxoro

B) Xorazm

C) Farg’ona-Toshkent

D) Surxondaryo

**12. Tanovarlar qaysi voha yo’nalishiga kiradi?**

A) Samarqand-Buxoro

B) Farg’ona-Toshkent

C) Surxondaryo, Qashqadaryo

D) Xorazm

**13.Turg`un Alimatov qaysi musiqiy cholg u asbobi ijrochisi edi?**

A) doira

B) rubob

C) *tanbur dutor

D) qonun

**14.Ari Boboxonov qaysi cholg’u asbobda bastakor sozanda bo’lgan?**

A) tanbur

B) doira

C) ud

D) rubob

**15.Usta Olim Komilov qaysi chog`u asbobi moxir ijrochisi bo`lgan?**

A) rubob

B) tanbur

C) ud

D)doira

**16.Qaysi cholg’ular damli cholg’ular oilasiga kiradi?**

A) Fortepiano

B) skripka

C) Fleyta

D) balalayka

**17. Shashmaqomning cholg’u qismi nima deb ataladi ?**

A) tasnif

B) nasr

C) namud

D) mushkilot

**18. Shashmaqomning ashula qismi nima deb ataladi?**

A) tasnif

B) mushkilot

C) namud

D) nasr

**19. O’zbek xalq cholg’u asboblari necha guruhga bo’linadi?**

A) *O’ng qo’lning bilagi orasida qattiq siqmasdan ushlash

B) O’ng qo’lning bilagi orasida qatitiq siqib ushlash

C) Rubobda yakka ijro etganda stulga suyanib o’tirishi kerak

D) O’ng qrlning bilagi bilan ushlash lozim

**20. Rubob torlarini chertib ovoz chiqarish uchun nimalardan foydalanilgan?**

A) *Ebonit mediatoridan
B) Taroqdan ishlangan mediator

C) yog’ochdan ishlangan mediator

D) Simdan ishlangan mediator

**21. Rubobda ijro etilgan notalar qaysi kalitda yoziladi?**

A) *Skripka kalitida

B) Bas kalitida tenor kalitida

C) Tenor kalitida

D) Al’t kalitida

**22. Bir xil nomli tovushlar oralig’idagi eng yaqin masofaga nima deb ataladi?**

A) *Oktava

B) Tovush oralig’i

C) Sekunda

D) Tertsiya

**23. Besh yondosh chiziqni tik kesib o’tgan chiziq nima?**

A) *Takt chizig’i deyiladi

B) Yuqoridagi chiziqlarga qo’yiladi

C) Uchinchi chiziqdan boshlanib chiziladi

D) Pauza deyiladi

**24. Nota yozuvida tovushlarni yuqoriga yoki pastkga o’zgartiruvchi belgini aytib bering?**

A) *Al’teratsiya belgilari

B) Pauzalar

C) Vol’ta

D) Forshlag

**25. Dinamik ishoralar belgilariga etibor bering?**

A) *Forta (kuchli)

B) Tez

C) Al’teratsiya

D) Jonli

**26. Ijro etish xarakterini belgilovchi belgilarni ayting?**

A) *Dinamik ishoralar (tuslar)

B) Kontabilos

C) Prsate

D) Rita

**27. Melizm kuy yoki ashulani nola (qochirim)li ijro etishdagi usullarini umumiy nomlari?**

A) *Melizm

B) Noxuning yuqoriga yo’naltirilgan zarb

C) Arpedjio

D) Sinkopa

**28. S.Yudakov xaqida bilganlaringizni so’zlab bering?**

A) *Kompozitor

B) Dirijyor

C) Opera xonandasi

D) Cholg’uchi

**29. Fermata qaerda ishlatiladi?**

A) *Fermata (notaning ostiga yoki ustiga)

B)  Glissando (yonboshigaqo’yiladi)

C) Aktsent (har tomondan qo’yiladi)

D) Notani oldiga qo’yiladi

**30. Oddiy intervallar nechta?**

A) *8 ta interval

B) 7 ta interval

C) 5 ta interval

D) 15 ta interval

**31. «Ansambl’» - so’zi qaysi tildan olingan?**

A) *Frantsiya

B) Italiya

C) Ruscha

D) Lotincha

**32. Tovushlarni qisqa- qisqa, bir-birovidan pauzalar bilan ajratib ijro etishni toping?**

A) *Stakkato

B) Markato

C) Legato

D) Nonlegato

**33. Musiqa asarlarini zo’r maxorat bilan ijro etuvchi sozanda bu?**

A) *Virtuez

B) Artist

C) Aktyor

D) As

**34. Turli musiqa asarlaridan olingan parchalar asosida tuzilgan p’esa qanday nomlanadi?**

A) *Popurri

B) Poemo

C) Pol’ka

D) Rimeks

**35. Torli klavishli urma cholg’u asbobi qaysi?**

A) *Fortepiano

B) Skripka

C) Doira

D) Al’t

**36. Laddagi eng turg’un pog’ona qanday nomlanadi?**

A) *Tonika

B) Triton

C) Subdominanta

D) Dominanta

**37. Uch notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl qanday nomlanadi?**

A) *Triol’

B) Triton

C) Trio

D)  Trel’

**38. Ko’p ovozli musiqa turi nima deb nomlanadi?**

A) *Polefoniya

B) Sonata

C) Syuita

D)Etyud

**39. Polifoniya qaysi kompozitorni ijodida juda rivojlanadi?**

A) *I.S.Bax va G.F.Gendel’ ijldida

B) F.List va Grig ijodida

C) P.I.Chaykovskiy va I.Glinka ijodida

D)V.A.Motsart va Gaydn ijodida

**40. P.I.Chaykovskiyning balterlari qaysi qatorda to’g’ri berilgan?**

A)   *«Oqqush ko’li», «Uyqudagi malika», «Shelkunchik»

B)  «Iolandta», «Evleniy Onegin», “Ruslan va Lyudmila”

C) «Gamlet», «Trozya»

D)  «Romeo va Jul’eta», «Tun»

# XULOSA

“CHolg‘u ijrochiligi” sinfida milliy musiqiy qadriyatlarimizni chuqur o‘rganish, milliy xalq kuylarini alohida yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e’tibor beriladi. Darslar jarayonida ta’limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida, talabalar yuksak axloqiylik, milliy ong, milliy tuyg‘u, milliy iftixor, Vatanni sevish va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Maqsad – talabalarning o‘quv jarayonida olgan bilimlarini mutaxassis sifatida mujassamlashtirish, keyingi o‘qituvchilik faoliyatida cholg‘u asboblarida ijro etishni tashkil qilish yo‘llarini, talaba va o‘quvchilarning o‘qishdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish, madaniy merosga to‘g‘ri yondoshishga, ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g‘oyaviy – badiiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish**.**

Musiqiy ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha talabalarni cholg‘u ijrochiligi tarixi, shakllantirilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, ansambllarni tashkil qilish haqidagi nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lish, ijrodagi usullar (cholg‘u zarblari, shtrixlari). Doira usullari, bezaklardan unumli foydalana olish, cholg‘ular ijrosida unison va ko‘p ovozli musiqiy asarlarni o‘rganish, tahlil qila olish, cholg‘ular haqida qiziqarli suhbatlar o‘tkaza olish, umumta’lim maktablarida turli xil ansambllarni tashkil eta olish, repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallashdan iborat. musiqiy-estetik va musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish; musiqiy-estetik qarashlar, did va talablarni shakllantirish. San’at mazmuni – hayot, atrofimizdagi voqelik, inson va uning ichki dunyosi o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ularidir. San’at inson faoliyatining boshqa turlaridan ko‘ra badiiy obrazlarni yaratish orqali voqelikni o‘zlashtiradi.

U kishining hissiyoti va onggiga bevosita ta’sir qiluvchi shaklda olamni guyoki yangidan yaratadi. Lekin, san’atkor hayotni, xodisalar va narsalarni nusxa qilib ko‘chirmaydi. U biror obrazga xos bo‘lgan eng

umumiy, tipik xususiyatlarni saralab olib, ularning hammasini tushunib olib, obraz qiyofasini o‘zgartiradi, so‘ng uni rasm, she’r, musiqa asari shaklida gavdalantiradi.

Albatta, har qanday san’atkorning asari muallifning shaxs asoratini o‘z ichida saqlab qoladi. CHunki, tashqi dunyoning ob’ektiv materiali san’atkorning ongida alohida qayta ishlab chiqilib, original, o‘ziga xos ijod bo‘lib qayta vujudga keladi. Biroq, shu bilan birga har bir ijodiy asar jamoat ongining mahsuloti deb ham hisoblanadi. Negaki, u muayyan bir ijtimoiy psixologiya, mamlakat, tarixiy hodisa bilan bog‘liq bo‘ladi. Badiiy ijodiyotning ijtimoiy tomoni shunda namoyon bo‘ladiki, inson o‘z zamondoshlari hamda xalqi o‘tmishi va odamzod bilan aloqadorligini badiiy obrazlar orqali his etadi.

Haqiqiy san’at abadiy badiiy qadriyatlar ijod qilar ekan, huddi avlodlarning uzluksiz bog‘liqligini amalga oshiradi. SHunday qilib, san’at asarlari ham hayot, ham ijodning rasmidir. Ammo san’at turlari hayotning turli-tuman tomonlarini bir xil darajada tasvirlashga qodir emas.

San’atning har bir turi o‘ziga xos vositalar va ifodalash tamoyillari bilan ajralib turadi. Ho‘sh, musiqa san’ati o‘zi nima? Uning maqsadi, vazifalari nimadan iborat? Musiqa (ilhom parilari san’ati) - ohang (intonatsiya) san’ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o‘ziga xos tarzda aks etib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o‘zgartirishda yordam beradi. Ma’lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Musiqa – insonning turmush tarzi va ijtimoy hayotida, mehnat va dam olish chog‘larida albatta ishtirok etadigan alomat sifatida xizmat qilib, odamni ma’naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shaxsning ma’naviy olamini, ahloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiyaning samarali quroli deb odilona hisoblanadi. Musiqaning o‘zi, uning yaratuvchilari, ijrochilari, tinglovchilaridan iborat musiqa madaniyati jamiyat madaniyatidagi muhim bir sohadir.

## Glossariy

**Yakka zarb** - Bu zarb tovush chiqarishning eng oddiy usuli bo`lib, noxunni rubob simiga yuqoridan pastga qarata dona-dona urish bilanbajariladi.

**Qo`sh zarb** - Bu zarb noxun bilan rubob simini yuqoridan pastga vapastdan yuqoriga bir tekisda urish bilan bajariladi.

**Zarbi parron** - Bunda asosiy tovushni uni oldiga turish qo`shimcha qisqa tovush bilan qo`shib (forshlag) chalish ko`zda tutiladi. Zarb qo`shimcha tovushda yuqoriga qarata va asosiy tovushda pastga qarata uriladi.

**Rez** - Bu zarb noxun bilan simga oldinma-ketinlik bilan past va yuqoriga tez zarb berishga (tirillatish) orqali amalga oshiriladi. Teskari zarb - Bu zarb sinkopali ritm harakteriga ega bo`lib 1,4, 7-zarblar urg`u (aksent) bilan chalinadi. 1, 3, 4, 6, 7-zarblar pastga, 2, 5, 8-zarblar esa yuqoriga uriladi.

**Bilak zarb** - Bunda noxunni simlar bo`ylab yuqoridan pastga sirg`atma bilan ( arpedjato) yuqoriga harakatlantirish nazarda tutiladi.

**Ufori zarb** - ritmi o`zbek xalq raqslari uchun harakterli bo`lgan ritmdir.

Ufor zarb asosan ikki usul bilan ijro etiladi. Aplikatura - Ijrochilikdagi muhim elementlardan biri aplikatura prinsiplarini ongli tushunish va uni puxta o`zlashtirishdan iborat.

**Intervallar** - Bir vaqtda yoki ketma-ket olingan ikki tovush oralig` Iinterval deb ataladi. Qochirim - oddiy va murakkab melizm. Bezaklar - forshlag turlari.

**Bitratma** - trellar turlari. Sayqal - mordentlar turlari bo`lib bitratmadan tomomila farq qiladi. To`lqinlashtirish - (vibrator) deyarli barcha xalq cholg`ulari va ashula ijrochiligiga uchun xos. Nolish - yarim tongacha bo`lgan o`ziga xos yirik bidratma.

**Molish** - barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohista sirg`altirish usuli. Kashish - yarim ton doirasida amalga oshiradigan bezak usuli.Ajam - Arablardan tashqari xalqlarning musiqasi.

**Bozgo`y** - maqom cholg`u kuylarida (tasnif, tarje‟, va boshqa) o`zgarmay takrorlanuvchi kuy tuzilmasi. Buzruk-buyuk, katta, o`n ikki maqom tizimi va Shashmaqomdagi maqomning nomi.

**Gardun** - falak gardishi, taqdir, qismat; "Shashmaqom" cholg`u bo`limidagi muayyan qism va doira usuliningnomi. Mushkilot-qiyinchiliklar; "Shashmaqom"cholg`u kuylari bo`limining umumiy nomi. Tasnif-xona va bozgo`y kuy tuzilmalari asosida ishlangan mukammal shaklli cholg`u asari.

**Xona** - uy; nisbat tugal shaklli kuy tuzilmasi. Kuyning avji tomon rivojida muhim o`rin tutadi.

**Shashmaqom** - Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq nomlari bilan mashhur olti xil mukammal parda uyushmasi; mazkur pardalar uyushmasi va muayyan doira usullari asosida ijod etilgan cholg`u kuy va ashula yo`llari turkumi.

**Saraxbor** - bosh xabarlar, bosh mavzu; "Shashmaqom" ashula bo`limidagi birinchi sho`ba nomi.

**Saqil** - og`ir vazmin; "Shashmaqom" mushkilot bo`limidagi yakuniy qism va doira usuli nomi.

**Segoh** - uch joy, uch parda; o`n ikki maqom tizimidagi sho`ba, shuningdek Shashmaqom va "Toshkent - Farg`ona" uslubidagi ma‟lum maqom nomi. Suporish - topshirish maqom tarkibiy qismlarining yakunlovchi xotima qismi.

**Savt** - tovush, ohang, aks sado; "Shashmaqom" ikkinchi guruh sho`balaridan birining nomi. Talqin – pand-nasihat; "Shashmaqomda" ma'lum sho`ba va doira usulining nomi.

**Tarona** - qo`shiq ohangi, ashula; maqomlarda asosiy aytim

yo`llari (Sarahbor, Tani maqom, Talqin va b.) orasida qo`llaniladigan va bir aytimdan ikkinchi asosiy aytimga o`tishda bog`lovchi vazifasini bajaruvchi ixcham shaklli ashula, ko`proq ruboiylar bilan aytiladi. **Turk** - maqom ashula yo`llarida keng qo`llaniladigan avjlardan birining nomi.

**Uzzol** - sakrash, pastga tushish; o`n ikki maqom va Shashmaqomida ma'lum sho`ba nomi.

**Ushshoq-**Oshiqlar; 12 maqomda birining nomi Shashmaqomda mashhur sho`balaridan biri.

Rok-hindcha Raga so`zining o`zgargan talaffuzi; Buzruk maqomining ikkinchi guruh sho`basi.

**"Chanqovuz"** Ikki lab orasida, tishlar orqali ohista tishlab, o`ng qo`l barmoqlari bilan chalinadigan tilchali chertma sozdir. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig`ida po`lat til o`rnatilgan, chalganda barmoqlar bilan tilni harakatga keltirib, to`lqinlantiriladi. Og`iz bo`shlig`i tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig`ida tovush beradi. Surxondaryo viloyatida chanqovuzning ikki turi, suyak chanqovuz va temir chanqovuz qo`llanilgan. Hozirgi kunga kelib, faqatgina temir chanqovuzdan foydalanilib kelinmoqda.

Chanqovuz 8-10 va 10-15 santimetr uzunlikdagi temir shoxadan iborat bo`lib, o`rtasida yupqa po`lat tilchasi bor. Tilcha uzunligi 7-9 santimetr bo`lib, erkin tebranib turuvchi tomoni, ya'ni qayrilgan uchi 1 yoki 1,05 santimetr bo`lishi lozim. Ana shu qayrilgan qismi barmoq bilan chalish qulay bo`lishi uchun dumaloq shaklida o`rab qo`yilgan. Ushbu chanqovuzlarda bir yarim oktava oralig`idagi har qanday kuy chalish mumkin. Ijrochi chanqovuzni og`ziga qo`yib, ikki labini tekizmagan holda tishlari bilan qistirib, chap qo`lida ushlab turadi. Po`lat tilchani o`ng qo`li ko`rsatkich hamda kichkina barmoqlari bilan chertganda bir necha xil zirillagan va zuvillagan tovush (Biyov-biyov, Gijdov-gijdov, Gijdov bov-gijdov gij) chiqaradi.

**"Sibizg`a"** Qadimuy milliy-an`anaviy cholg`u. Sibizg`a qamishdan

yasalgan nay turidagi cholg‘‘u bo`lib, uning kelib chiqishi Surxondaryo vohasidagi cho`ponlarga borib taqaladi, yani sibizg`aning yaratuvchilari cho`ponlardir. Uning ikkinchi nomi, xalq orasida “Sibiziq” deb ham yuritiladi. Sibizg`aning 3-4 ta teshik-bosuvchi pardalaribor. Sibizg`aning ijrochilari asosan xalq orasidan chiqqan bo`lib, ular tomonidan yaratilgan zibizg`a kuylari ustozdan-shogirdga, og`izdan-og`izga o`tib bizgacha yetib kelgan. Sibizg`aning ovozi juda yoqimli va jarangdor bo`lib, uni eshitgan odam ruhan tetiklashadi va kayfiyati ko`tariladi. Sibizg`a cholg`u sozi hozirgi vaqtga kelib Surxondaryo viloyatida qayta tiklanib, takomillashnirilib, samonaviy kuylarga moslashtirilib keng ijro etilmoqda. Bu cholg`uda yaratilgan “Sibiziq kuy” nomi bilan keng ommalashgan.

**“Do`mbira”** Do`mbira torli-tirnama o`zbek xalq milliy-an’anaviy cholg`u sozidir. Dutor tuzilishidagi Do`mbirada ipak yoki ichakdan qilingan ikkita tor bo`lib, bu torlar ko`proq kvarta oralig`ida sozlanadi. Do`mbira dastasiga boglangan yoki doimiy pardalar bo`lmaydi. Do`mbirada baxshilar o`z dostonlariga jo`r bo`ladilar. Do`mbiraning tuzilish shakli, dastasi, ikkita tor tikilishi va nihoyat, chalinishi bilan, Dutorni eslatadi. Do`mbiraning torlari Dutordek kvartya, ba’zan kvintaga sozlanadi, lekin sozning aniq balandligi ijrochining sozlashiga bog`liq bo`ladi.

Do`mbirada kuyning qanday ijro etilishi mahoratidan kelib chiqqan holda har bir do`mbirachi ijro etayotgan asarning emotsional obrazli holatiga-xarakteriga bog`liq. O`zbek Do`mbira kuylarida asosan ”Cho`poncha” asari musiqa jihatidan ajralib turadi. “Kelinoyi” kuyi esa lirika jihatidan, ya’ni yumshoq, mayin va ijrochilik xususiyatiga boy bo`lishi bilan boshqa turdagi Do`mbira kuylaridan farq qiladi. Bu kuyda ladli, ifodali, ya’ni tuli balandlikda bo`lgan tovushlarning o`zaro aloqasini, betakror tovushlarning bir tonikaga intilishini, o`zaro bog`liq tovushlar tizilmasini kuzatish mumkin.” Qo`ng`irot”, “Laqay”, “Baxshi kuyi” kabi asarlarida asosan baxshining o`ziga bog`liq bo`lib qoladi. Bu kuylada Do`mbira dostonlarga aylanib ketga ba’zi bir aniq dalillarni o`z ichiga oladi.

**“Akkompanemet”** -frantsuzcha “akkompagnement”, “akkompagner” so`zlaridan olingan bo`lib, jo`r bo`lish ma’nosini anglatadi. Ashula aytganda yoki biror cholg`u sozida chalganda unga jo`r bo`lishdir. Ashulaga pianino, foptepiano, xalq cholg`u asboblari, turli ansambllar: trio, kvartet, kvintet va orkestrlarda jo`r bo`lish mumkin. “Akkompanemet” yakkaxon ashulachi yoki cholg`uchiga garmonik va ritmik hamohang bo`lib, musiqa asarining badiiy darajasini chuqurlashtiradi.

**“Balabon” -** Bulamon, bolaban, bolaman so`zlari ma’nosidadir. Qadimiy o`zbek milliy xalq cholg`u asboblaridan bo`lib, ko`proq Xorazmda tarqalgan. Odatda tut yog`ochdan yasalib, boshdan-oxiriga qadarparmalab ishlab chiqilgan. Shakli surnayga o`xshash, lekin undan biroz kichik, yani uzunligi taxminan 300 millimetrdir. Balabonning yuqori qismiga o`rnatilgan “til” I qamishdan tayyorlanib, qirqiladi. Balabonda sakkizta teshik mavjud, buning yettitasi ust va biri orqa tomondadir. Orqa tomondagi teshik yuqorida bo`lib, chap qo`lning bosh barmog`i bilan bekitiladi. Tovushqatori diatonik, kichik oktavadagi Re va Re-bemoldan boshlab uch oktavaga yaqinlashib boradi. “Balabon” da yakka ijro qilish mumkin bo`lganidek, turli ansambl va orkestrlarda ham chalinadi. “Balabon” qamishdan yasalgan Dog`iston xalq cholg`u asbobi hamdir. Ijro etiladigan tomoni “Til” qilinib kesiladi. Umumiy uzunligi 150-200 millimetrdir.

**“Bir turdagi musiqa cholg`u sozlari”.** Turli katta-kichiklikda bo`lib, bir xil tuzilishda va ijro qilish yo`li ham bir xil bo`lgan cholg`u sozlaridir. Bularning tembrida katta o`xshashlik bo`lsa ham tovushning balandlik va kuch darajasi turlichadir. Simfonik orkestrdagi fleyta, goboy, klarnet, fagot, truba, trambon va skripkalar rus xalq cholg`u asboblaridagi do`mbira, balalayka, guslilar, o`zbek xalq cholg`u sozlaridagi g`ijjak, dutor va boshqa cholg`u sozlarining katta-kichik turlari bor. Bu cholg`u sozlari turlarining o`ziga xos nomlari ham bor. Masalan, skripka turlari: skripka, flt, violonchel va kontrabas, dombra turlari: pikkolo, prima, sekunda, alt, tenor, bas va kontrabaslardir. Takomillashtirilgan dutor va g`ijjak turlari ham shu kabi nomlar bilan

ataladi.

**“Doira” –** O`zbek xalqida dapp, childirma, chirmanda deb ataladi. O`zbek, tojik va uyg`ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg`u sozidir. Diametri taxminan 400 millimetr bo`lgan, gardishi ilgarilari tok zangidan qilingan, so`nggi vaqtlarda yog`ochni egib yoki kichik yog`och bo`laklarini bir-biriga ulab yasaladi. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi, qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular doirani chalganda qo`shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past bum – Xorazmda gup, ikkinchisi baland bak– Xorazmda toq deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush “bakko” yoki “bakka”: tak-tak yoki “baka”-tak deb yuritiladi. Doira keng tarqalgan cholg`u sozlaridan bo`lib, unda turli ansambl, orkestr va yakka holda ijro qilinadi. Doira jo`rligidagi raqslar o`zbek xalqi orasida juda keng tarqalgan. “Shashmaqom” doira usulisiz ijro qilinmaydi. Buxoroda har bir maqom aytuvchi hofiz, maqom usullarini doirada ustalik bilan o`zlashtirganlar va o`z ashulalariga jo`r bo`lganlar. Doira tovushlari notada puflama va simfonik orkestrdagi urma cholg`u sozlarinikidek bir chiziqqa yoziladi. So`ngi yillarda doira usullari etnograf-folklorshunoslar tomonidan turli tartibda yozilib kelingan. 1930 yillardan boshlab “bum” chiziq ustidan, “bak” chiziq ostidan yoziladigan bo`ldi. “Shashmaqom” dagi har bir kuyning o`ziga xos usuli bor. Shunga ko`ra, usullar shu kuy nomi bilan yoziladi. Masalan, “Usuli Muxammas”, “Usuli Talqin”, “Usuli Tasnif va hokazo.

**“Doira zarblari” -** xonanda, sozanda, xalq cholg`u sozlari yoki raqsga jo`r bo`lib chalinadigan doira zarblari-usullari bo`lib, ular turlicha bo`ladilar: Raqs uchun chalinadigani, bunda doira usullari ancha murakkab bo`lib, “Yakka raqs”, “Qo`sh raqs”, “Zang” va shunga o`xshash nomlarga ega. Bulardan bir nechasi qo`shilib, to`la bir raqs o`yini hosil bo`ladi. Keng tarqalgan raqs zarblari “Oqsatma”, “Gul o`yini”, ”Chor qars” va boshqalardir. Xalq ashulalariga jo`r bo`luvchi doira usullari. Ular turlicha bo`lib, ayrimlarining o`lchovi bir turli bo`lgan ashulalarda qaytarilishi mumkin.

Maqom yo`llariga jo`r bo`luvchi usullar. Maqomlarda bir turli nom bilan ataladigan hamma kuylarning doira usullari bir xildir. Masalan: “Olti maqom” ning hammasida uchragan “Tasnif” lar turlicha kuyda bo`lsada, deyarli bir xil doira usuli bilan ijro etiladi. Hamma “Nasrullo” lar bir xil doira usulida ijro etiladi.

**“Dutor” -** tojikchadan “Du” -ikki, “tor” - tor ma’nosini anglatib, o`zbek, shuningdek, tojik, turkman va uyg`ur xalqlari ortasida keng tarqalgan torli-tirnama cholg`u sozidir. Dutor ikki qismdan – dasta va kosadan iborat bo`lib, bularni birlashtiruvchi qismni “bo`g`iz” deb ataladi.

“Dutor” kosasi o`yma yoki “qovurg`acha” larning birlashganidan qilinishi mumkin. “O`yma dutor” Samarqand, va Xorazmda qo`llanilib, bir bo`lak tut yog`ochdan o`yib ishlanadi. Qovurg`ali dutor ham tut yog`ochidan ishlanib, 8-10 bo`lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut og`ochidan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog`ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog`ochidan qilinadi va unga 13-14 ta ichak parda bog`lanadi.

Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 millimetrdir. Ayrim joylarda 750-800 millimetr ham bo`ladi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta-o`rta parda sozi, kvinta-bosh parda sozi, unison-qo`sh parda sozi va oktavalarga sozlanadi. Bulardan ko`proq qo`llaniladigani “munojot” - kvinta va “Tanovar” - kvarta sozlaridir. Bu sozlar aniq bir balandlikda bo`lmay, ijrochi va ashulachi xohishi bo`yicha, turlicha balandlikda bo`lishi mumkin. Dutor ansamblda va yakka soz sifatida qo`llaniladi. Ovozi past, mayin bo`lgani uchun ko`proq yakkanavoz tarzida ijro qilinadi. Shuning uchun ham maxsus dutor kuylari bor: “Rohat”, “To`rg`ay”, “Dutor bayoti” va boshqalar. O`zbek xalq cholg`u sozlaridan “Dutor” ayniqsa ayollar orasida keng tarqalgandir. Respublikamizda sadaflar va o`ymakorlik bilan dutor yasashda Usta Usmon Zufarov mashhurdir Dutor qaytadan ishlanib o`zbek xalq cholg`u sozlari orkestrida kiritilgan. Orkestrda dutorning alt, bas, kontrabas turlari qo`llaniladi.

**“Dutor alt” -** dutorning kichraytirilgan turi bo`lib, uning qopqog`i tut o`rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlar o`rniga ichak tor tortiladi. Pardalar dastani o`yib, xromatik holda doimiy o`rnashtirilgan. Torlar kvarta bo`yicha birinchi oktavadagi Mi va Lya-ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Hajmi kichik oktavadagi Mi, Lya-dan birinchi oktavadagi Sol“ va ikkinchi oktavadagi Do-ga qadardir.

**“Dutor bas” -** dutorning katta qilib ishlangan turi bo`lib, uning to`rtta tori bo`ladi, ular kvarta bo`yicha, to`rtinchi tor katta oktavadagi Do, uchinchi tor katta oktavadagi Sol“, ikkinchi tor kichik oktavadagi Re va birinchi tor kichik oktavadagi Lya-larga sozlanadi. Lya tori ichakdan qilingan bo`lib, qolganlari metaldandir. Notalar eshitilishi bo`yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi katta oktavadagi Do-dan birinchi oktavadagi Sol“-ga qadardir.

**“Dutor kontrabas” -** dutorning juda katta qilinib ishlangan turi, uning to`rtta tori bo`lib, bular kvarta bo`yicha: to`rtinchi tor kontr oktavadagi Mi, uchinchi tor kontroktavadagi Lya, ikkinchi tor katta oktavadagi Re va birinchi tor katta oktavadagi Sol“-larga sozlanadi. Ovoz hajmi kontr oktavadagi Mi-dan kichik oktavadagi Lya-ga qadardir. Notalar bas kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqoriga yoziladi. **“Kamoncha” –** g`ijjak, skripka va bularning turli shakldagi katta-kichik xillarida tovush chiqazish vositachisi – smichokdir. Kamoncha yog`ochiga ot dumining qili tortiladi va unga kanifol surtiladi.

**“Karnay” –** o`zbek puflama musiqiy cholg`u sozi bo`lib, misdan yasaladi. Uzunligi ikki metrdan oshiqroq. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda surnay, nog`ora, doiraga qo`shilib chalinadi. Karnayda asosiy tovushdan yuqori sof kvinta yoki kichik septima intervali chalinadi.

**“Parda” -** musiqa cholg`u sozlarining ma`lum balandlikdagi tovushlarini olish uchun chap qo`l barmoqlari bilan bosiladigan o`rin. Parda dutor, tanbur, rubobda ichak, metall yoki yog`ochdan yasaladi.

Changda esa, parda uriladigan torlardir. Parda – dutor, tanbur, rubobga o`xshash cholg`u sozlarda dastaga bog`lanadigan, qo`y ichagidan qilingan ipdir.

**"Rubob" -** Osiyoning ayrim xalqlari va o`zbeklar o`rtasida qadimdan keng tarqalgan torli-tirnama cholg`u sozidir. O`rta Osiyo xalqlariga nisbatan janubiy Xitoyning Sintsyan viloyatida yashovchi uyg`urlar o`rtasida keng tarqalgan turi Qashqar rubobi deyiladi. Rubob kosasi qazma, ya'ni o`yilib, ustiga teri qoplangan, dastasiga ipak yoki ichakdan qilingan pardalar bog`lanadi.

Rubobda beshta tor bo`lib, uchtasi ipak tor, ikkitasi sim tordir. Bulardan 5- va 4- torlar katta oktavadagi Lya-ga unison, 3-tor kichik oktavadagi Mi va asosiy melodik, 2- va 1- torlar kichik oktavadagi Lya-ga unison sozlanadi.

Respublikamizda hozirgi vaqtda qo`llanilayotgan rubob qayta ishlanib, yarim pardalar asosida ishlangan va pardalar doimiy, surilmaydigan qilib yasalgan. Bu rubobdagi besh torning to`rttasi sim tor bo`lib, beshinchisi ichak tordir, kvarta bo`yicha 5- tor katta oktavadagi Si-ga, 4- va 3- torlar kichik oktavadagi Mi-ga unison, 2- va 1- torlar kichik oktavadagi Lya-ga unison sozlanadi. Ovoz hajmi katta oktavadagi Si-dan ikkinchi oktavadagi Lya-ga qadardir. Rubob notalari eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida skripka kalitida yoziladi.

**"Setor" -** tanbur shaklida, lekin undan kattaroq cholg`u sozi, 10-12 ta tori bor, bulardan birinchisi kuy tori hisoblanadi. Kuy tori boshqa torlarga nisbatan xarrakda bir oz balandroq, qolgan torlar esa rezonans beruvchi torlar hisoblanadi. Setor asosan kamoncha bilan ijro etiladi, ayrim vaqtlardagina noxun bilan Tanbur tarzida chalinadi. Setor asosan Qashqarda keng tarqalgan, O`zbekistonda ham ishlatiladi. Setorda 16 ta parda bor. Kuy tori katta oktavadagi Sol"- ga sozlanadi. Tovushqatori diatonik tartibda tuzilgan.

**"Surnay" –** o`zbek xalqi musiqa san'atida keng tarqalgan qadimiy puflama yog`och cholg`u sozidir. Surnay yolg`iz, shuningdek nog`ora,

karnaylar bilan ham birgalikda chalinadi. So`nggi vaqtlarda o`zbek xalq cholg`u asboblari orkestrida ham qo`shilmoqda. Surnayda chap va o`ng qo`l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshikcha bor. Yettinchi teshik esa, pastki tomonda bo`lib, buni chap qo`lning bosh barmog`i bilan berkitiladi. Ovoz hajmi kichik oktavadagi Lya-dan ikkinchi oktavadagi Mi-ga qadar. Notalar eshitilishicha skripka kalitida yoziladi. Surnay tovushi baland bo`lgani uchun ochiq havoda turli tantanalarda chalinadi. Surnay yo`llari-yirik shaklli “Surnay navosi”, “Shodiyona”, “Surnay irog`i”, “Shodiyona”, “Miskin” kabi o`zbek xalq kuylari mavjud.

**“Tanbur” –** O`zbekistonda, Tojikistonda, janubiy Xitoyning Sintszyan viloyatida keng tarqalgan torli-tirnama qadimiy cholg`u sozidir. Tanburning kosasi nok shaklidao`yilib yoki bir necha “qobirg`a” -lardan yopishtirilib, unga uzun dasta ulanadi. Umumiy uzunligi 1100-1300 millimetrdir. Dastasiga ichakdan qilingan parda bog`lanadi. Baland tovushlar olish uchun ichak pardalardan tashqari qopqoqqa kichik va kalta cho`plar yopishtiriladi – buni xos parda deyiladi. Pardalar soni 18-20 tachadir.

Tovushqatori diatonik bo`lib, to`rtta sim tor tortiladi. 1-, 2- va 4-si bir ovozli – unison bo`lib, 3- not kvarta, kvinta, ba’zan sekunda past boladi. Notalar bas va skripka kalitlarida yoziladi. Tanburning 1-, 2- va 4- torlari katta oatavadagi Sol‛‛-ga, 3- tor esa katta oktavadagi Re yoki Do-ga yoki Fa-ga sozlanadi. Ovoz hajmi katta oktavadagi Sol‛‛-dan birinchi oktavadagi Sol‛‛-ga qadar. Tanbur o`ng qo`lning ko`rsatkich barmog`iga kiygizilgan maxsus noxun bilan chalinadi, Chalinganda faqat birinchi tor urilib, qolganlari qo`shimcha sado olish uchun foydalaniladi. Ayrim vaqtlardagina bu torlarning hammasi bir yo`la uriladi. Natijada akkordeonsimon tovushlar eshitiladi.

**“Tor” -** sakkiz raqamiga o`xshatib yog`ochdan o`yilgan kosasiga uzun dasta o`rnatiladi. Kosa ustiga teri qoplanadi. Dastaga 22-23 ta ichak parda bog`lanadi.

Ilgarigi torlarda 17-19 pog`ona tovushqatorda bog`langan pardalar bo`lgan. Hozirgi tor esa 12 pog`onali tovushqatorga ega. Torda uch

jyft asosiy tor va ikkita qo`shimcha tor bor. Ozarbayjon torining notalari yozilishiga nisbatan kichik sekunda past tovush beradi. Sozlanishi – eshitilishi bo`yicha birinchi oktavadagi Lya, ikkinchi oktavadagi Re-diyez, kichik oktavadagi Re-diyez, birinchi oktavadagi Sol‘‘-larga. Torning umumiy uzunligi 800-900 millimetr bo`lib, uni yakka holda, ansamblda vaorkestrda chalinadi.

**“Ud” -** yunonlarning Lirasi kabi Sharq xalqlarida mashhur bo`lgan cholg`u sozidir. Qadimiy musiqa nazariyalari, musiqa haqidagi asarlarda tor va tuzilishini Ud cholg`usozi asosida tushuntirilgan. Udning milodiy I asrda ham mavjudligi aniqlangan. XVIIasrda yashagan olim Darvishali Changiy o`zining risolasida Ud – cholg`u sozlarining podshosi deb ta’kidlaydi. Chunki uning mayin, muloyim, yoqimli tovushi, ovoz hajmining kengligi, o`sha davrdagi boshqa cholg`u sozlaridan ajralib turar edi. Darvishalining yozishicha, udda 12 juft sozlanuvchi ipak tor bo`lgan. Hozir Ud Arman, o`zbek, tojik xalq sozandalari orasida qo`llanilib kelinadi.

**“Chang” –** O`rta Osiyo xalqlarining qadimiy urma cholg`u sozi. Sadosi baland bo`lgani uchun ilgarilari faqat cholg`u kuylarni ijro etishda ansamblga qo`shganlar, chunki, davomli jaranglovchi sadosi ashulani buzgan. Changning unisonga sozlangan uchtadan tori bo`lib, ovoz hajmi katta oktavadagi Sol‘‘- dan ikkinchi oktavadagi Vi-ga qadardir. Ilgari xalq o`rtasida qo`llangan Changning tovushqatori diatonik tartibda bo`lgan.

Notalar eshitilishiga nisbatan, oktava yuqorida, skripka kalitida yoziladi. Changni rezinka qoplangan maxsus ingichka cho`p bilan urib chalinadi. XVII asrda musiqa olimi Darvishali Changiy Changning juda qadimiy cholg`u asbobligi va undan kasallarni davolashda foydalanilganligini yozib qoldirgan. Hozirda Chang qayta ishlanib, tovushqatori xromatik, ya’ni yarim tonlik qilingan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

**1.** O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Toshkent, 2017-yil 31-may

**2.** Yu. Rajabiy "O`zbek xalq musiqasi" I tom 1955 y.

**3.** Yu. Rajabiy "Shashmaqom" I tom 1975 y.

**4.** Yu. Rajabiy "Shashmaqom" II tom 1975 y.

**5.** Yu. Rajabiy "Shashmaqom" VI tom 1975 y.

**6.** H. Nurmatov "Rubob navolari" Toshkent. 1993 y.

**7.** H. Nurmatov "Rubob darsligi" Toshkent. O`qituvchi nashriyoti. 1993y.

**8.** H. Nurmatov "O`zbek xalq musiqasi" Toshkent. O`qituvchi nashriyoti. 1998 y.

**9.** Qosimov R. «An'anaviy rubob ijrochiligi» Toshkent., «O`zbekiston», 1999-yil.

**10.** Qosimov R. «Ud», Toshkent., «G`.G`ulom», 2002-yil.

**11.** Qosimov R. «An'anaviy tanbur ijrochiligi» Toshkent., «Cho'lpon», 2002-yi1.

**12.** H.Nurmatov "Qashqar rubobi" Toshkent. O`qituvchi nashriyoti. 2003 y.

**13.** Sh.Rahimov "Dutor" Toshkent. G`.G`ulom nashriyoti. 2005 y.

**14.** Q.Rahimov "Cholg`uchilar ansambli", "Fan va texnologiya" Toshkent. 2006 yil

**15.** Qosimov R "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" Toshkent, "O`zbekiston", 2007-yil. 16.A.Mamadaliyev. Ansambl sinfi. Toshkent. "Musiqa", 2017 yil.

**16.** Barbara Kreader, Fred Kern, Phaillip Keveren, Mona Rejino. Piano Lessons Book 2001.

**17.** Sh.N.Rahimov. Cholg'u ijrochiligi (dutor misolida). Elektron darslik, T., 2011.

**Internet saytlari.**

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz

**Z.M.YAKUBOV**

# CHOLG`U IJROCHILIGI

(g`ijjak cholg`usi )

***(5111100-musiqa ta'limi mutaxassisligi, Oliy o`quv yurtlari musiqa yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma)***


| | |
|---|---|
| Muharrir | O. Sharapova |
| Musahhih | N. Isroilov |
| Texnik muharrir | B. Egamberdiyev |

**ISBN 978-9943-6672-4-2**

2021-yil 15 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2021-yil 20 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84.1/16. "Times New Roman" garniturasi.
Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 11,0.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 606

---

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.


